2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 264 (1325), 2024-yil 28-dekabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

## PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XITOY – QIRG'IZISTON – O'ZBEKISTON TEMIR YO'LI QURILISHI BOSHLANISHIGA BAG'ISHLANGAN MAROSIM ISHTIROKCHILARIGA MUROJAATI

**Hurmatli anjuman ishtirokchilari!**

Avvalo, siz, azizlarni Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston yangi magistral temir yo'li qurilishi boshlanishi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Bundan yarim yil oldin mazkur strategik transmintaqaviy loyihani amalga oshirish bo'yicha birinchi to'laqonli bitim imzolangan edi. O'tgan qisqa davrda texnik hujjatlarni tayyorlash ishlari yakunlandi. Bugun esa biz bevosita qurilish ishlariga start bermoqdamiz.

Bu do'st mamlakatlarimiz salkam 30 yil davomida intilib kelgan tom ma'nodagi tarixiy voqeadir.

Sizlarning ishtirokingizda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yangi transport arteriyasi yaratilmoqda. U Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy bilan qisqa yer usti yo'li orqali bog'laydi, davlatlarimizning ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish va strategik sherikligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat — ushbu loyiha hamkorlikda barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida ko'plab mamlakatlarni birlashtirib kelayotgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi ezgu maqsadlarga to'liq mos keladi.

Shu munosabat bilan hurmatli hamkasblarim — Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Nurg'ojoyevich Japarov janoblariga loyihani ilgari surish borasidagi shaxsiy hissalari va faol sa'y-harakatlari uchun yana bir bor minnatdorlik izhor etaman.

**Hurmatli marosim ishtirokchilari!**

Yangi temir yo'l qurilishi mamlakatlarimiz iqtisodiyoti va bepoyon mintaqamiz uchun katta samara berishini alohida qayd etishni istardim.

Infratuzilma sohasidagi ushbu yirik loyiha ilg'or muhandislik, innovatsiya va raqamli yechimlar asosidagi keng kooperatsiyani, yuqori ekologik standartlarga amal qilishni nazarda tutadi.

Koshg'ar — Torugart — Makmal — Jalolobod — Andijon yo'nalishi bo'yicha 20 ta stansiya, 42 ta ko'prik, 25 ta tonnel barpo etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy tranzit-logistika infratuzilmasi, omborxona va terminallar quriladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu magistral yo'lning ishga tushirilishi mintaqaviy savdo va investitsiyalar hajmini bir necha barobar ko'paytirish, transport xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirish, Markaziy Osiyoning ulkan tranzit salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Quyidagi muhim raqamlarga ham e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ushbu yo'l orqali yiliga 15 million tonna yuk tashiladi. Xitoydan Yevropa mamlakatlariga yuklarni yetkazib berish masofasi va muddati bir necha ming kilometr va deyarli bir haftaga qisqaradi. Yo'lovchilarni muntazam tashishni yo'lga qo'yish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kelgusida ushbu temir yo'l liniyasi Transafg'on yo'lagi bilan tutashib, Xitoy, Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi transport-kommunikatsiya tarmoqlarini samarali birlashtirish va kuchaytirishga imkon yaratadi. Bundan, hech shubhasiz, barcha mamlakatlar iqtisodiy foyda ko'radi. Yuzlab yangi korxonalar va o'n minglab ish o'rinlari yaratiladi.

Albatta, mazkur loyiha Buyuk ipak yo'lining qayta tiklanishiga, madaniy-gumanitar almashuvlar rivojiga, xalqlarimizning yanada yaqinlashuviga xizmat qiladi.

**Qadrli do'stlar!**

O'zbekiston mavjud texnik va intellektual resurslarni to'liq ishga solgan holda, bugun boshlanayotgan qurilishning barcha bosqichlarida faol ishtirok etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ishonchim komil, birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli ushbu temir yo'l tarmog'i bizning mustahkam do'stligimiz, sheriklik va taraqqiyotimizning yana bir yorqin timsoliga aylanadi.

Fursatdan foydalanib, ushbu strategik loyihani amalga oshirishda ishtirok etayotgan barcha quruvchi va muhandislarni, ishchi va mutaxassislarni kirib kelayotgan Yangi — 2025-yil bilan chin dildan tabriklayman. Sizlarga sihat-salomatlik, katta yutuq va omadlar tilayman.

Bugun sizlarning bunyodkor sa'y-harakatlaringiz bilan boshlanayotgan ulkan loyiha mamlakatlarimiz va mintaqamizning umumiy kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qilsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

## SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI KO'RIB CHIQILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-dekabr kuni sun'iy intellekt texnologiyalarini hamda telekommunikatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy IT-xabga aylantirish vazifasi belgilangan. Shu maqsad yo'lida raqamli texnologiyalar bosqichma-bosqich rivojlantirib kelinmoqda. Barcha hududlarda IT-parklar tashkil etilib, bu sohada o'qish va ishlash uchun imkoniyat kengaydi. Internet tezligi va qamrovi oshdi. 190 mingdan ziyod aholi ishli bo'ldi.

So'nggi yillarda sohada 3 milliard dollar investitsiya o'zlashtirilgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2017-yilga nisbatan 8,5 barobar o'sib, ularning soni mingtadan oshgan. Bugun soha vakillarining har o'ntadan bittasi shunday xalqaro korxona. Shuningdek, yetti yil avval 12 ta eksportchi korxona bo'lgan bo'lsa, bu yil 650 ta bo'ldi. Yil yakuni bilan axborot texnologiyalari va aloqa xizmatlari eksporti 900 million dollardan oshadi.

Hayotning turli jabhalarida sun'iy intellektni qo'llash kengaymoqda. Shunday texnologiya asosida 20 dan ortiq loyiha ishga tushdi. Tarmoq va yirik korxonalar bo'yicha yana 70 ta loyiha ishlab chiqildi. Sun'iy intellektga tayyorlik xalqaro indeksida O'zbekiston 17 pog'onaga ko'tarildi.

Bu yo'nalishga e'tiborning davomi sifatida O'zbekiston Prezidentining shu yil 14-oktabrdagi qarori bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi. Unda sun'iy intellektga asoslangan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar ulushini ko'paytirish, texnik infratuzilmani kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan.

Taqdimotda raqamli texnologiyalar vaziri kelgusi yilga mo'ljallangan rejalar haqida axborot berdi.

Jumladan, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida "bulutli" ma'lumotlar markazi ishga tushiriladi. Startaplarga sharoit yaratish uchun Toshkent axborot texnologiyalari va Inha universitetlarida sun'iy intellekt bo'yicha laboratoriyalar ochiladi. Davlat idoralarining 3 ming nafar xodimi, hokimlar va o'rinbosarlarining bu boradagi malakasi oshiriladi.

Mutasaddilarga sun'iy intellekt asosida ishlaydigan loyihalar sonini 100 taga, dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 50 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Tarmoq korxonalarida boshlangan transformatsiya ijobiy natija beryapti. Shu yilning o'zida telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 16 foizga oshib, 21 trillion so'mga yetgan. "O'zbektelekom" kompaniyasi daromadi 9 trillion so'mdan oshgan.

Endi kelgusi yil boshqaruvni to'liq raqamlashtirib, xarajatlarni iqtisod qilish, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etib, xalqaro reyting olish zarurligi ta'kidlandi.

"O'zbekiston pochtasi" tizimida ham o'zgarish bor. Bu yil tushumlar 1,4 barobar, eksport 20 foiz oshgan. Yangi turdagi xizmatlar joriy qilingani natijasida jo'natmalar soni 50 foiz ko'paygan.

Rejaga ko'ra, kelasi yil 1 ming 600 ta pochta bo'linmasida elektron tijorat mahsulotlarini topshirish yo'lga qo'yiladi. Raqamli saralash markazi ochilib, bunday tovarlar va pochta jo'natmalariga ishlov berish sifati yaxshilanadi. Bu maqsadlar uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan mablag' jalb qilinadi.

Soha uchun muhim asos — "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Endi unga tayanib, barcha tarmoq va hududlar kesimida raqamlashtirish bo'yicha ikki yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi.

Jumladan, kelgusi yilda 6 mingta yangi tayanch stansiya quriladi. 30 ming kilometr optik tolali kabel tortilib, qamrovi 98 foiz bo'ladi. Soha eksportini 1,2 milliard dollarga yetkazish choralari ko'riladi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi haqidagi qonun ishlab chiqilishi soha rivoji uchun yana bir katta yangilik bo'ladi. "Enterprise Uzbekistan" nomli ushbu markazda "ingliz huquqi" tamoyillari, kapitalning erkin harakati, xalqaro standartdagi mehnat munosabatlari, xorijiy bank filiallari yo'lga qo'yilmoqda.

Taqdimotda sun'iy intellektga doir qonuniy asoslarni yaratish, raqamli texnologiyalar sohasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

**O'zA**

### O'zbekistonning mehrli siyosati

## INSONPARVARLIK MEHVARINI TUTIB TURGAN YURT

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan urush hududlarida aziyat chekkan 100 nafar falastinlik bolalar va ayollar yurtimizga olib kelindi. Shu orqali O'zbekiston yana bir bor mehrli siyosatini namoyon etdi.**

Bugun, afsuski, tinchliksevarlik global geosiyosiy jarayonlarda nisbiy tushunchaga aylanib bormoqda. Chunki xalqaro maydonda ishonch inqirozi avj oldi. Hozir buni tahlil qilib, aybdorlarni axtarib vaqtingizni olish niyatimiz yo'q. Ammo bir haqiqatni aytish kerak, ma'lum bir toifa o'z manfaati uchun inson umriga zomin bo'lishdan ham tap tortmayapti. Ayanchlisi, ular buni ko'rib, bilib turib amalga oshirmoqda. Axir XXI asrda urushni onlayn tarzda tomosha qilish, begunoh odamlarning zabun holini bevosita kuzatish mumkin.

Davomi 2-betda




### 2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI

## TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH

### xalqimiz hayot sifati va farovonligini ta'minlash sari tashlangan muhim qadam

**Jahon iqtisodiy hayotida kechayotgan murakkab jarayonlar, global bozor dinamikasi, pandemiya oqibatlari, geosiyosiy ziddiyatlar va logistika zanjirlaridagi uzilishlar kabi omillar milliy iqtisodiy siyosatni aniq maqsadga yo'naltirish, sarmoya jalb qilish mexanizmlarini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi sa'y-harakatlar alohida e'tiborga loyiq.**





Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha sohalarida erkinliklarni kengaytirish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, xususiy sektorga imkoniyatlar va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa nufuzli moliya institutlari bilan hamkorlik, shuningdek, rivojlangan davlatlar investorlarini jalb qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Yaqinda Prezidentimiz o'tkazgan yig'ilishda ham aynan shu masalalar — xorijiy investitsiyalar oqimi, kelgusi yilga mo'ljallangan rejalar, hududiy investitsiyaviy faollik, loyihalarni sifatli amalga oshirish borasidagi muammolar tanqidiy tahlil etildi.

Joriy yilning o'tgan 10 oyi davrida iqtisodiyotimizga 26 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb etilgani o'ziga xos natija bo'ldi. Xususan, shundan qariyb 24 milliard dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya ekani nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham muhim ko'rsatkichdir. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya mahalliy iqtisodiyotga ilg'or texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv tajribalari va innovatsion yondashuvlarni olib kiradi. Bu esa industriyani modernizatsiya qilish, mahsulot raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Davomi 3-betda

**Donishmandlar adolat ustun boʻlgan jamiyatdagina tinchlik barqaror boʻladi, deb bejiz aytmagan. Dunyoda inson qadrini ulugʻlaydigan tinchlik elchilari bor ekan, mehr mehvari abadiy yashaydi. Kun kelib adolat qaror topadi.**

YANGI OʻZBEKISTON

2024-yil 28-dekabr, 264-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Oʻzbekistonning mehrli siyosati

# INSONPARVARLIK MEHVARINI TUTIB TURGAN YURT

Boshlanishi 1-betda

Afsuski, goʻdaklarning ayanchli ahvoli, ayollar va keksalarning oh-zori ham kor qilmayapti. Dunyoda mutlaq tinchlik oʻrnatib boʻlmayapti. Shunday chogʻda nahot mehr degani shuncha qahat boʻlsa deb oʻylaysan kishi. Ammo zum oʻtmay umidbaxsh soʻz yodga tushadi: "Dunyoda birgina yaxshi odam bor ekan, demak, Yer oʻz oʻqi atrofida aylanaveradi".

Buni hozirgi geosiyosiy jarayonlarga qiyos etsak, **Oʻzbekiston kabi tinchliksevar yurtlar, adolat va ezgulik targʻibotchilari bor ekan, mehr mehvari saqlanib qolaveradi.**

Davlatimiz rahbari joriy yil 11-noyabr kuni Falastin muammosiga bagʻishlangan navbatdan tashqari arab-islom sammitida ishtirok etgan edi. Oʻshanda tinchlikka eltuvchi bir nechta xayrli tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, Falastin — Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yoʻli bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy harakatlarni toʻliq qoʻllab-quvvatlab, urushda jabrlangan bir guruh falastinlik bolalar va ayollarni Oʻzbekiston shifoxonalarida begʻaraz davolashga tayyor ekanimiz taʼkidlandi.

Bugun ushbu tashabbus amaliy tus oldi. Urushdan jabr koʻrganlar davlatimiz rahbari topshirigʻiga koʻra olib kelindi. Oʻzbekistonga kelgan bemor bolalar va ayollar, ularga hamrohlik qiluvchilar davlat tomonidan toʻliq tibbiy koʻrikdan oʻtkazilmoqda. Buning uchun ular barcha shart-sharoitga ega sogʻlomlashtirish sihatgohlariga joylashtirildi. Barcha zaruriy ehtiyojlari qoplanib, eng sara mutaxassislar tomonidan nafaqat sogʻligʻi, balki ularning hayotga toʻlaqonli moslashuvini taʼminlashga ham katta eʼtibor berilmoqda.

— Urush tufayli bir necha marotaba joyimizni oʻzgartirdik, koʻchib yuribmiz, — deydi falastinlik ayol Iyman Ayman Muhammad. — Urush tufayli oilalar parokanda boʻlib ketdi, goʻdaklar yetim boʻlib qolmoqda. Bizning oilamiz ham hozir ogʻir ahvolda. Shunday vaziyatda bizga bagʻrikeng oʻzbek xalqi yelkadosh boʻldi. Oʻzbekiston bolalarimning sogʻligʻini tiklash uchun begʻaraz yordam beryapti. Buning uchun Prezident Shavkat Mirziyoyevga tashakkur aytaman.

**BU SOʻZLARNI ESHITYAPMAN-U BOʻGʻZIM ACHISHDI. BEIXTIYOR KUNDALIK HAYOTIMIZNI BIRMA-BIR TAHLIL ETA BOSHLADIM. TONGDA KOʻZIMIZNI OCHISHDAN AVVAL TELEFONGA QARAYMIZ. YANGILIKLAR BILAN TANISHA BOSHLAYMIZ. ULAR ORASIDA URUSH MAYDONIDAGI HOLATLAR HAQIDAGI DARAKLAR HAM BOʻLADI. SALBIY AXBOROTLARDAN SAQLANISH, KAYFIYATNI BUZMASLIK UCHUN ULARNI TEZGINA OʻTKAZIB YUBORAMIZ...**




USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

"Dunyoni goʻzallik qutqaradi", degan edi Fyodor Dostoyevskiy. Ha, dunyoni qalb goʻzalligi va unga bevosita bogʻliq boʻlgan amallarimiz qutqaradi.

Osmonni chang, gʻubor qoplasa, momom koʻkka oʻychan termilib: "Qayerlardadir urush boʻlyapti", derdi. Bu gapni eshitgach kulardik. Axir biz maktabda tabiatshunoslikdan saboq olganmiz. Chang qanday koʻtarilib, osmonni nega gʻubor qoplashini yaxshi bilamiz-da! Momom esa maktab koʻrmagan, urush farzandi edi... Yaqinlarini Ikkinchi jahon urushi sabab yoʻqotgan.

Hozir momomning oʻsha gaplarini eslasam, yuragim zirqiraydi. Boʻgʻzim achishib, koʻzga yosh keladi. Negaki momom bolaligida, urush zamonida osmonga qarab faqat gʻuborni, qaygʻuni koʻrgan. Shu bois, koʻkni chang qopladimi, demak, yana urush boʻlyapti deb oʻylagan va bu qarash yoshi saksondan oshganida ham oʻzgarmadi. Endi bilsam, urush inson hayotini, qarashlarini shu darajada oʻzgartirib yuborar ekan. Uning asorati inson qalbida oʻchmas ogʻriqli iz qoldiradi.

Inson qalbi osmonga oʻxshaydi. Uning chegarasi yoʻq, bepoyon va noaniq. Qalbdagi goʻzallik, soflik quyoshday porlasa, uning nuri tushgan joyda ezgulik barq uradi. Gʻubor qoplaganida esa... yoʻq, bunday taqdirni dushmanga ham ravo koʻrib boʻlmaydi. Ammo...

— Bomba portlab, uyim quladi, — deydi yurtimizga davolash uchun olib kelingan Mahmud Naim Rabah Abush. — Uch nafar farzandim halok boʻldi. Oʻzbekiston bizni quchoq ochib kutib oldi. Oʻzbekiston Prezidentidan juda minnatdormiz. Bizga men kutgandan ham koʻra ancha yaxshi qarashyapti. Mamlakatingiz rahbarining bizga koʻrsatgan yordamidan boshimiz osmonga yetdi.

Bu soʻzlarni eshityapman-u boʻgʻzim achishdi. Beixtiyor kundalik hayotimizni birma-bir tahlil eta boshladim. Tongda koʻzimizni ochishdan avval telefonga qaraymiz. Yangiliklar bilan tanisha boshlaymiz. Ular orasida urush maydonidagi holatlar haqidagi daraklar ham boʻladi. Salbiy axborotlardan saqlanish, kayfiyatni buzmaslik uchun ularni tezgina oʻtkazib yuboramiz...

Soʻng bamaylixotir nonushta qilib, ishga joʻnaymiz. Kechki payt ham shu ahvol. Televizordagi oldi-qochdi seriallardan bezib, telefonga koʻz tikamiz. Tagʻin tushlikda yegan ovqatimiz yoqmagani bois, ertaga yaxshiroq oshxonaga borish haqida oʻylaymiz. Shuni oʻylashimiz hamon ijtimoiy tarmoqlarda tansiq taomlarning reklamasi chiqib kelaveradi. (Tavba, shu mitti matoh xayolimizni oʻqiydi).

Xoʻsh, urush maydonida yashayotganlar-chi?! Mahmud Naim Rabah Abushning uyi bomba zarbidan qulab tushgan kuni qanday oʻy bilan uygʻongan, oʻsha tunda nimalar tashvishida yotogʻiga yoʻl olgan ekan? Ularning xayolini "oʻqiydigan" telefoni, ijtimoiy tarmoqlarida qanday reklamalar aylanar ekan?! Oxirgi soʻroq yuragimga qoʻrquv soladi...

Bu haqda qanchalik oʻylamay, savollarimning hech biriga joʻyali javob topa olmayman. Bilganim shuki, ular urush maydonidagi xabarlarga qarab kunlik, ehtimol, maʼlum soatlarga mos reja qiladi. Oʻsha rejalar ham tinch boshpana topish, jonini saqlab qolish va omonlik boʻlib tursa, qorin toʻydirish haqida boʻladi. Loʻnda qilib aytganda, hayotini shu xabarlar asosida quradi. Ular eng zoʻr oshxona emas, bir marta qornini toʻydirish haqida orzu qiladi. Uch farzandidan bir tunda ayrilgan kishining iztirobini esa tasavvur qilib boʻlmaydi. Dahshatlisi, bunday hodisaga har kuni, hamma tayyor turishi kerak...

— Portlashlarning birida jiddiy jarohat oldim, — deydi Rim Ziyad Salah. — Oilamdan 8 nafari halok boʻldi. Bu alamli iztirobni soʻz bilan ifodalab boʻlmaydi. Tanam kuyib, bir koʻzim yaxshi koʻrmay qoldi. Umid qilamanki, Oʻzbekistondagi davolash jarayonlarida koʻrish qobiliyatimni, umuman sogʻligʻimni tiklash imkoniga ega boʻlaman va vatanimga sogʻlom holatda qaytaman.

Ularning soʻzlarini tinglar ekanman bir holat diqqatimni tortdi. Urushdan jabr koʻrgan bu insonlar boshidan kechirgan dahshatli hodisalarni aytib berar ekan yuz-koʻzidan biron oʻzgarish sezilmaydi. Avvaliga bundan ajablandim. Soʻng boshimdan oʻtgan dahshatli hodisa yodimga tushib, koʻzimdan yosh tirqiradi...

Oʻshanda bahor adoqlab qolgan edi. Yigirma yashar ukam ogʻir ahvolda shifoxonada yotgandi. Vaziyatni otamdan soʻradim. Ogʻir bosh chayqadi. Umid yoʻq... oʻpkam toʻlib, yuzim oʻzgarishi hamon otam koʻrsatkich barmogʻini burniga tekkizdi: "Tss!"

Angladimki, bir soniya boʻlsa ham aniq qaygʻudan yaqinlarimiz, onam va opamlarni asrash kerak. Ukamni soʻnggi manzilga kuzatayotganda negadir koʻzimga yosh kelmadi. Oradan uch kun oʻtib bizga dalda boʻlib turgan qarindoshlar uy-uyiga tarqala boshladi. Shunda togʻam bilan xoʻshlashayotib oʻkirib yubordim. Ukamni soʻnggi manzilga kuzatib, ilk bora yigʻladim. Bildimki, qaygʻu ichga yutilaversa, odamning yuz-koʻzi qotadi. Diydasi qattiqlashgan odamning qalbi baribir bir kuni iztiroblarini izhor etishni istaydi. Oʻziga bir tinglovchi, dalda axtaradi. Oʻsha vaziyatda unga kim yupanch boʻlsa, uni bir umr oʻziga dildosh, eng yaqin inson deb biladi.

Urushdan jabr koʻrib, yurtimizga davolanish uchun keltirilgan 100 nafar zamondoshlarimizning ham diydasi qotgan. Urushning dahshatlarini koʻraverib, yaqinlarini yoʻqotib, iztirobi ichida toshga aylangan. Koʻzlari qaqroq quduqqa aylangan. Bugun yangi Oʻzbekiston ilgari surayotgan adolatparvarlik, tinchliksevarlik siyosati sabab ular oʻziga dalda boʻladigan insonlarni topdi. Ehtimol, barcha imkoniyatga ega joyda, oʻzbekning eng tansiq taomlarini yeb, tongni xotirjam qarshi olib, tunda huzur bilan uxlayotgan bu insonlar qalbi sel boʻlsa, ne ajab. Zero, qalb osmonga, koʻz yoshi esa yomgʻirga qiyos boʻladi. Yomgʻir dilni poklaydi. Qaygʻuni aritadi. Negaki ular inson qadri ulugʻlanadigan mamlakat mehrini, oʻz yurtiga oʻxshaydigan daryodil odamlar eʼtiborini his etadi.

Donishmandlar adolat ustun boʻlgan jamiyatdagina tinchlik barqaror boʻladi, deb bejiz aytmagan. Dunyoda inson qadrini ulugʻlaydigan tinchlik elchilari bor ekan, mehr mehvari abadiy yashaydi. Kun kelib adolat qaror topadi.

**Boboravshan GʻOZIDDINOV,**
**"Yangi Oʻzbekiston" muxbiri**

Nuqtayi nazar

# GLOBAL MULOQOT MAYDONI

## YANGI OʻZBEKISTON XALQARO MIQYOSDA DOLZARB MASALALAR MUHOKAMASI MARKAZIGA AYLANMOQDA



**Dilorom FAYZIYEVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

**Bugun yangi Oʻzbekiston muhim global va mintaqaviy masalalarni muhokama qilish, ularga samarali yechimlar topish uchun xalqaro muloqot maydoniga aylanib boryapti. 2024-yilda ham mamlakatimiz jahonning eng nufuzli anjumanlari, davlat rahbarlarining uchrashuvlari, dunyo muammolariga doir xalqaro majlisu mashvaratlarga mezbonlik qilgani fikrimizni tasdiqlaydi.**

Jumladan, 2024-yil 12-17-fevral kunlari Samarqand shahrida Atrof-muhit va bioxilma-xillikni saqlash borasidagi muhim xalqaro tadbir — BMTning Yovvoyi hayvonlarning koʻchib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi tomonlar konferensiyasining 14-yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Bunday nufuzli tadbir ilk bor MDH, xususan, Markaziy Osiyo davlatlari orasida aynan Oʻzbekistonda oʻtkazilgani tarixiy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ushbu tadbir xalqaro ishtirokchilarda katta qiziqish uygʻotdi, 130 dan ortiq davlatdan 1800 ga yaqin vakil qatnashdi.

Konvensiya kotibiyati va BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha dasturi ushbu nufuzli anjumanni Samarqandda oʻtkazish tashabbusini qoʻllab-quvvatlagani keyingi yillarda mamlakatimizning qator dolzarb muammolar boʻyicha muloqotlarning global markaziga aylanib borayotgani dalilidir. Davlatimiz rahbarining yigʻilish ishtirokchilariga yoʻllagan tabrigida qayd etilganidek, mazkur forum Samarqandning ekologik diplomatiyaning taʼsirli markazlaridan biri sifatidagi maqomini mustahkamlashga xizmat qildi.

Iyunda "Ekologik tahdidlar: oʻzgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqboli va barqaror yechimlarni izlash" mavzusidagi toʻrtinchi anʼanaviy forum ham Samarqandda oʻtkazildi va koʻhna shaharning "ekologik diplomatiya markazlaridan biri"ga aylanayotgani tasdigʻi boʻldi.

Bundan 6 yil oldin — 2018-yil noyabrida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqelik" mavzusida birinchi, 2020-yil 12-13-avgust kunlari "Yoshlar — 2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari" mavzusida ikkinchi va 2022-yil 5-6-dekabr kunlari "Inson huquqlari sohasida taʼlim" mavzusida uchinchi inson huquqlari boʻyicha Samarqand forumi oʻtkazilgan.

Birinchi forum jahon amaliyotiga oʻziga xos "Samarqand ruhi"ni olib kirgan boʻlsa, navbatdagi anjuman yirik xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ekologik tahdidlar kuchaygan bir paytda inson huquqlarini himoya qilish masalasi kun tartibiga qoʻyilgani va oʻziga xos yechimlar ishlab chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

**Samarqand shahrida sentyabrda boʻlib oʻtgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki boshqaruvchilari kengashining toʻqqizinchi yillik yigʻilishi mintaqamizda ilk bor oʻtkazilgani Oʻzbekistonning nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar bilan oʻzaro hurmat va ishonch asosida yoʻlga qoʻyilgan hamkorligining yuksak namunasi boʻldi.**

Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumiga toʻxtalsak, avvalo, uning yildan yilga kengayib, yaxshi anʼanaga aylanib borayotganini alohida qayd etish kerak. Xalqaro darajadagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish maqsadlariga xizmat qiluvchi mazkur forum barcha qitʼadan kelgan yangidan yangi ishonchli hamkorlarni yurtimizda jamladi.

Oʻtgan uch yilda forum ikki va koʻp tomonlama iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirish, zamonaviy iqtisodiy masalalarda yuzaga kelayotgan dolzarb muammo va yangiliklarni muhokama qilish, ilgʻor gʻoya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Joriy yilgi tadbirda 93 davlatdan 2500 dan ortiq vakil qatnashgani forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini anglatadi. Bu, oʻz navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotida ortga qaytmas tus olgan islohotlar hamda oʻzaro manfaatli investitsiyaviy loyihalarni yoʻlga qoʻyishga ulkan qiziqishdan dalolat.

Geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yoʻlida xavf va tahdidlar kuchayib, dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayoni kechayotgan, tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar, xalqaro savdo pasayishi, investitsiya oqimi kamayishi, iqlim oʻzgarishi ofatlari vujudga kelishi kabi beqaror sharoitda oʻtkazilgan anjumanda barcha muammoli masalalar muhokama qilindi.

Forum yakunlari boʻyicha 26,6 milliard dollarlik kelishuvlar imzolandi. Vaholanki, 2023-yilda oʻtkazilgan forum doirasida qiymati 11 milliard dollarlik, 2022-yilda esa 7,8 milliard dollarlik hujjatlar imzolangandi. Bu ham forum sifat va samara jihatidan yildan yilga takomillashib borayotganini tasdiqlaydi.



Samarqand shahrida sentyabrda boʻlib oʻtgan Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki boshqaruvchilari kengashining toʻqqizinchi yillik yigʻilishi mintaqamizda ilk bor oʻtkazilgani Oʻzbekistonning nufuzli xalqaro moliyaviy institutlar bilan oʻzaro hurmat va ishonch asosida yoʻlga qoʻyilgan hamkorligining yuksak namunasi boʻldi.

Anjumanda 100 dan ortiq mamlakatdan 2000 ga yaqin vakil qatnashib, mamlakatimizdagi jadal islohotlar, qulay investitsiya va tadbirkorlik muhiti bilan yaqindan tanishdi. Oʻzaro manfaatli hamkorlikning yangi yoʻnalishlari belgilab olindi.

Shu yil avgustda yurtimizda sohaning taniqli ekspertlari ishtirokida "Koʻp oʻlchovli kambagʻallik boʻyicha global muloqot" mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etildi. Anjuman bugun dunyoda davom etayotgan turli mojarolar, gumanitar, epidemiologik va iqlim inqirozining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda kambagʻallikning barcha koʻrinishiga barham berish jarayonida vujudga kelayotgan jiddiy tahdidlarning oldini olishga qaratildi.

Ushbu nufuzli tadbirga Oʻzbekistonning mezbon sifatida tanlangani mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish borasidagi keng koʻlamli islohotlarga xalqaro hamjamiyatning yana bir eʼtirofi boʻldi. Mazkur anjumanda koʻplab davlatdan kelgan nufuzli ekspertlar muloqoti, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha Oʻzbekiston tajribasi ayni yoʻnalishdagi muammoli masalalar yechimiga xizmat qilishi shubhasiz. Binobarin, keyingi yillarda ilgʻor xorijiy yondashuvlar hamda mamlakatimizning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiqib, eng quyi boʻgʻin — mahalla darajasiga tushgan holda kambagʻallikka qarshi kurashish borasida muvaffaqiyatli tajriba yaratilgani soha ekspertlari tomonidan eʼtirof etildi.

Yurtimizda ehtiyojmand aholini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha keng qamrovli siyosatni izchil davom ettirib, kelgusi uch yilda kambagʻallik darajasini 7 foizgacha pasaytirish maqsad qilingan. Oʻzbekiston bu borada xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan oʻzaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur va loyihalarni amalga oshirish orqali yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishdan manfaatdorligini namoyish qilmoqda.

Koʻp oʻlchovli kambagʻallik boʻyicha oʻzaro muloqot, uning yakunida ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalar jahon miqyosida kambagʻallikni kamaytirishda yangi qadam boʻlib, bu bilan kambagʻallikni qisqartirish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish imkoni mavjud.

"Sharq taronalari" oʻn uchinchi xalqaro musiqa festivali ham avgust oyida UNESCO shafeligida boʻlib oʻtdi. Prezidentimiz taʼkidlaganidek, **"Mamlakatimizda oʻn uchinchi bor oʻtkazilayotgan ushbu anjuman garchi "Sharq taronalari" deb atalsa-da, bugungi kunda u mohiyat eʼtiboriga koʻra, "Jahon taronalari" festivaliga aylanganiga barchamiz guvohmiz".**

Mazkur festivalning birinchisida 31 mamlakat vakillari qatnashgan boʻlsa, bu galgisida barcha qitʼadagi 80 ga yaqin davlatdan 400 dan ziyod sanʼatkor va olim ishtirok etdi.

Shahrisabzda oʻtkazilgan Ikkinchi xalqaro maqom sanʼati anjumani esa qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimiz ramzi oʻlaroq dunyo xalqlarini tinchlikka, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyotga, shaxs, uning erki va qadrini taʼminlashga avj pardalardagi sehrli tarannum orqali chorladi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ilgari surgan tashabbusga muvofiq, 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida "Islom — tinchlik va ezgulik dini" mavzusida nufuzli xalqaro konferensiya oʻtkazildi.

Jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan, islomni ilm-maʼrifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy singari buyuk olimlarning boy merosini oʻrganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadini koʻzlagan ushbu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan qizgʻin qoʻllab-quvvatlandi.

Umuman olganda, bugun yangi Oʻzbekiston global miqyosdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitda dunyoda tinchlik va barqaror taraqqiyotni taʼminlashga qaratilgan xalqaro tashabbuslar egasi, xalqaro ahamiyatga ega dolzarb masalalar boʻyicha muloqot markaziga aylanib borayotgan davlat sifatida tanilmoqda. Shubhasiz, bugungi xalqaro hamkorlik doirasidagi sermahsul muzokaralar amaliy ishlarimizni sifat va mazmun jihatidan yanada yuksak bosqichga olib chiqmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM OʻQISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

## 2024-YIL: ISLOHOTLAR SARHISOBI

# TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH

## xalqimiz hayot sifati va farovonligini ta’minlash sari tashlangan muhim qadam



**Nodir JUMAYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari doktori, professor**



**Farhod ZAYNIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori**

**Boshlanishi 1-betda**

Investitsiya hajmi jadal o‘sishi, o‘z navbatida, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur davrda ushbu investitsiyalar hisobiga 6300 dan ziyod yangi korxona ishga tushirilgani tadbirkorlik infratuzilmasi kengayishiga, ishlab chiqarish diversifikatsiyasida muhim omil bo‘ldi. Ushbu korxonalar tomonidan 30 trillion so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratilgani iqtisodiyotga qo‘shimcha dinamika, tovarlar va xizmatlar bozorida raqobatni kuchaytirish, sifat va narx nisbati yaxshilanishiga olib keladi.

Shuningdek, 163 mingta yuqori daromadli ish o‘rni tashkil etilgani aholi bandligi masalasini hal etishdagi yana bir katta qadamdir. Chunki ish o‘rinlari ko‘payishi daromadlar oshishi, turmush darajasi yuksalishi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omildir.

Bu raqamlar shunchaki aytishga oson. Lekin, avvalo, yuqorida aytib o‘tganimiz — global miqyosda kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitda nainki o‘sish va rivojlanish, balki borini boricha saqlab qolish imkoni qiyinlashgan chigal vaziyatda bu ko‘rsatkichlar juda katta natijadir. Asosiysi, 163 mingta yuqori daromadli ish o‘rni yaratilgani shuncha oilaga, demakki, o‘rta hisobda yarim million yurtdoshimiz turmushiga baraka, totuvlik, farovonlik, shuncha ko‘ngillarga taskin, shukronalik, umid olib kirganini anglatadi.

2024-yilning 1-noyabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda xorijiy kapital ishtirokiga ega 15 ming 297 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Shundan 4261 tasi qo‘shma, 11 ming 36 tasi to‘liq xorijiy sarmoya asosidagi korxonadir. Ularning soni ortib borayotgani xorijiy investorlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ishonchini tasdiqlaydi.

Soha kesimida xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi eng ko‘p korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritmoqda — 5454 ta. Keyingi o‘rinlarda sanoat (3300 ta), qurilish (1128 ta), axborot va aloqa (1066 ta), xizmatlar (612 ta), tashish va saqlash (519 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (416 ta), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish (194 ta) sohalari joylashgan. Shuningdek, boshqa sohalarda 2608 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbari raisligida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ayrim tarmoqlarda investitsiya hajmi kamaygani qayd etildi. Bu global bozordagi o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot sababli tarmoqlarni modernizatsiyalash hamda yangi bozorlarni o‘zlashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, 17 ta loyihada hujjatlar tayyorlash va tender jarayonlari cho‘zilishi sarmoyalarni o‘z vaqtida jalb qilish va iqtisodiy rejalarni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Investitsiya siyosatini har bir hududda aniq strategiya asosida yo‘lga qo‘yish, tadbirkorlar bilan ishlashda samarali yondashuvlardan foydalanish zarur. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar uchun ochiq, shaffof mexanizmlar yaratish iqtisodiy o‘sish va

> **Yirik investitsiya loyihalari, xususiy sektor rolini kuchaytirish, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyani iqtisodiyotga faol jalb etish, logistika va infratuzilmani yaxshilash, ijodiy yondashuvlar bilan biznesni erkin rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish orqali biz kelgusida yanada yuqori marralarga erisha olamiz.**

tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar yo‘lida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Bu institutlar nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg‘or menejment va boshqaruv tajribalarini, loyihalarni shakllantirish va monitoring qilish bo‘yicha ilg‘or metodlarni ham olib kiradi.

Shu o‘rinda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining O‘zbekiston biznes muhitidagi ijobiy o‘zgarishlarni e’tirof etayotgani, iqtisodiyot o‘sishi sur’atlariga ijobiy baho berib, xususiy sektor ishtirokidagi loyihalarni ham moliyalashtirishga tayyor ekanini bildirgani alohida ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, investitsiya muhiti barqarorlashib, islohotlar natija berayotganini ko‘rsatadi. Yangi loyihalar, tarmoqlarga xos rivoj-lanish yo‘llarini belgilash va shu orqali iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish imkonini beradi.

Ammo xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi ayrim loyihalar cho‘zilib ketishi, hujjatlar va tanlov jarayonlaridagi kechikishlar ushbu hamkorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shunday ekan, bu borada aniq muddatlar, samarali monitoring va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, shaffof va tezkor qaror qabul qilish amaliyotini joriy etish zarur. Bu nafaqat muayyan loyihalar, balki butun iqtisodiy sohada sarmoya muhitining yanada jozibadorlashishiga xizmat qiladi.



Jarayonda davlat-xususiy sherik-ligi mexanizmlarini kengroq tatbiq etish, xususiy sarmoya kiritish imkoniyatlarini kengaytirish, loyihalar portfelini shakllantirishda sifat va samaradorlikka alohida e’tibor qaratish zarur. 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar iqtisodiyotda raqobatbardosh tarmoqlarni vujudga keltirish, mavjud tarmoqlarni modernizatsiyalash, energiya samaradorligini oshirish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, agrosanoat kompleksini yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sektorga aylantirish kabi strategik yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Bu jarayonda aniq hududiy strategiyalarni ishlab chiqish muhim. Har bir viloyat, tuman yoki shahar o‘ziga xos iqtisodiy salohiyat, tabiiy resurslar, ishchi kuchi potensiali, transport geografiyasi va bozor imkoniyatlariga ega. Demak, investitsiyaviy loyihalarni belgilashda ushbu xususiyatlar hisobga olinishi, har bir hudud uchun moslashtirilgan investitsiya dasturlari qabul qilinishi, ularning ijrosini ta’minlaydigan samarali boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqilishi shart.

Investitsiya jozibadorligi faqat miqdor jihatidan emas, balki ushbu mablag‘lar qanday maqsadlar uchun ishlatilayotgani, iqtisodiy rivojlanish va innovatsion yangilanishga qanchalik hissa qo‘shayotgani bilan ham belgilanadi. Shu bois, investitsiyaviy loyihalar ilm-fan, texnologiya va innovatsiyaga asoslangan holda shakllantirilishi zarur.

Masalan, xorijiy sarmoya hisobiga qurilgan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohasiga ilg‘or tajribalar joriy etilishi, mahalliy kadrlar malakasini oshirish, ichki bozorni to‘yintirish bilan birga eksport salohiyatini kengaytirish ham juda muhim.

Bu borada mahalliy tadbirkorlik subyektlari bilan xorijiy investorlar o‘rtasida sinergiya yaratish, klasterlar tashkil qilish, bilim almashinuvi, texnologik transferlar, startaplarni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur. Yirik loyihalar atrofida kichik va o‘rta biznes shakllanishi, mahalliylashtirish darajasini oshirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali tashqi iqtisodiy ta’sirlarga bardoshli, diversifikatsiyalashgan va barqaror iqtisodiy tizim yaratiladi.

Hududlarning o‘ziga xos salohiyatiga tayangan holda aniq investitsion profillar ishlab chiqish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, energetika ta’minotini yaxshilash, inson kapitali salohiyatini yuksaltirish orqali ularni investorlar uchun jozibador markazlarga aylantirish mumkin.

Hududlar uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha alohida dasturlar, innovatsion texnoparklar, erkin iqtisodiy va maxsus industrial zonalar tashkil etish muhim. Bunda hududiy sarmoyadorlar ishtirokini rag‘batlantirish, chet ellik sarmoyadorlarga qulay sug‘urta va kafolat mexanizmlarini taklif etish, huquqiy himoya tizimini takomillashtirish, ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish kabi vazifalar dolzarbdir.







Investitsiya jalb qilinishi past bo‘lgan sakkizta tuman va shaharda, avvalo, mavjud iqtisodiy sharoit, investitsiya siyosatidagi xatoliklar, inshootlar va infratuzilma holati, mahalliy boshqaruv organlari salohiyati chuqur tahlil qilinishi, so‘ngra aniq “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishi lozim. Natijada bu hududlarda ham sarmoya oqimini faollashtirish, yangi lo-yihalarni ilgari surish, tadbirkorlar uchun jozibador muhit yaratish va bandlikka hissa qo‘shish mumkin bo‘ladi.

Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, taraqqiy topgan davlatlar iqtisodiyoti barqaror o‘sishida xususiy sektor muhim rol o‘ynaydi. Investitsiyaviy loyihalar muvaffaqiyatida davlat-xususiy sheriklik tizimi asosiy mexanizmdir. Davlat-xususiy sheriklik infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarish, transport, energetika, suv ta’minoti, chiqindilarni qayta ishlash kabi ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarga innovatsion yondashuvni tatbiq etish imkonini beradi.

O‘zbekistonda ham davlat-xususiy sherikligi mexanizmlari orqali energetika, transport, kommunal xo‘jalik, sog‘liqni saqlash, ta’lim sohalarida yirik loyihalar boshlangan. Mazkur mexanizmlar xorijiy investorlar uchun ham jozibador, chunki ular davlat kafolatlaridan foydalangan holda barqaror bozor segmentlariga kiritilmoqda. Biroq bu borada huquqiy bazani takomillashtirish, shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni mustahkamlash va tavakkalchilikni adolatli taqsimlash talabi ortib bormoqda.

Investitsiya qarorlarini qabul qilishda ishonchli, to‘liq, zamonaviy statis-tik, tahliliy axborot ta’minoti katta rol o‘ynaydi. Investorlar ma’lumotga asoslangan holda qaror qabul qilish uchun tegishli infratuzilma, qonunchilik bazasi, xatarlarni baholash metodologiyalari, biznes yuritish xarajatlari, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, logistika imkoniyatlari bo‘yicha aniq va ishonchli ma’lumotlarga muhtoj.

Shu bois, O‘zbekistonda statistika tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, sohalar, tarmoq va hududlar kesimida interaktiv, yuqori ishonchli ma’lumotlar bazasini shakllantirish, investorlar uchun axborot portalini rivojlantirish lozim.

Yig‘ilishda muhokama qilingan ayrim loyihalardagi kechikishlar ham ehtimol, axborot-resurs bazasi, texnik hujjatlarni tayyorlash, tender jarayonlarini tashkil etishdagi sustkashlikka borib taqaladi.

Bu borada xorijiy konsalting kompaniyalari, xalqaro moliya institutlari va mahalliy ekspert hamjamiyati bilan hamkorlikda ishlash, malakali mutaxassislar tayyorlash, loyihalarni boshqarish metodologiyalarini joriy etish zudlik bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalardan sanaladi.

Institutsional rivojlanish ham inves-titsiyalarni jalb qilishda muhim o‘rin tutadi. Ixtisoslashgan agentliklar, eksportni qo‘llab-quvvatlash markazlari, investitsiya bo‘yicha maslahatchi organlar, hududlarda investitsiya bo‘limlari faoliyatini kuchaytirish, ularning malakasini oshirish va vakolatlarini aniq belgilash orqali butun investitsiya jarayoni boshidan oxirigacha samarali boshqarilishi mumkin.

Bunday strategiya hayotga tatbiq etilishida ilm-fan va ta’limga sarmoya kiritish, innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish, startaplar, venchur fondlar, innovatsion laboratoriyalar, tadbirkorlik inkubatorlarini kengaytirish zarur. Yangi texnologiyalar, sun’iy intellekt, “yashil” energiya yechimlari tadbirkorlik muhitini to‘liq yangilashga qodir. Xorijiy investitsiyalar ana shu jarayonlarda katalizator vazifasini o‘taydi.

Transport va logistika sohasini taraqqiy ettirish, erkin savdo hududlariga integratsiyalash, qishloq xo‘jaligida ilmiy yondashuv, suv resurslarini te-jash, ekoturizmni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar ham chet el sarmoyalarini jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Investorlar diversifikatsiyalangan, moder-nizatsiyalashgan, barqaror iqtisodiyotni afzal ko‘radi. Shu bois, barcha sohalarni birdek rivojlantirib, investitsiyaviy joziba doirasini kengaytirish lozim.

Muxtasar aytganda, tadbirkorlikni rivoj-lantirish va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha O‘zbekistonda kechayotgan keng qamrovli islohotlar dastlabki ijobiy natijalarini bermoqda. Yuqorida qayd etilgan ko‘rsatkichlar amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning amaliy samarasidir.

Tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi uzoq muddatli, murakkab, lekin istiqbolli jarayon ekanini ko‘rmoqdamiz. Bu jarayonda huquqiy, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bir yo‘nalishda, uzviy uyg‘unlikda amalga oshirilishi lozim. Aynan shunday yondashuv iqtisodiyotning barqaror o‘sishini, globallashgan jahon iqtisodiy tizimida munosib o‘rin egallashini, aholi farovonligini yuksaltirishni ta’minlaydi.

Yirik investitsiya loyihalari, xususiy sektor rolini kuchaytirish, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyani iqtisodiyotga faol jalb etish, logistika va infratuzilmani yaxshilash, ijodiy yondashuvlar bilan biznesni erkin rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish orqali biz kelgusida yanada yuqori marralarga erisha olamiz. Eng muhimi, ushbu yo‘lda yaratiladigan har bir ish o‘rni, eksportga yo‘naltirilgan har bir mahsulot, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi bilan bog‘liq islohotlar jamiyat farovonligi, xalqning hayot sifati va davlatning raqobatbardoshligi sari tashlangan muhim qadamdir.



Quyosh panellari o‘rnatgan aholi nafaqat o‘zi, balki mamlakat iqtisodiyotining ham barqaror o‘sishiga munosib hissa qo‘shadi. Yurtimizda ekologiya uchun zararsiz bo‘lgan muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami ortadi. Shu bois, davlat bu borada fuqarolarni rag‘batlantiryapti.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 28-dekabr, 264-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



# 2025-yil — Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili

# MUQOBIL ENERGIYA MANBAI

## xonadonlarni yoritib, xarajatlarni kamaytirmoqda

**Bundan 15 yillar oldin televizor orqali quyosh panellari haqida lavha ko‘rgandim. O‘shanda quyoshdan tekin elektr toki olish mumkinligi va bundan hatto odamlar o‘z xonadonida foydalanayotganini eshitib qoyil qolganman. Bu texnologiya qanday ishlashini bilmasam-da, quyoshdan olinadigan elektr toki tekinga tushishi va ekologiya uchun zararsiz ekani meni qiziqtirib qo‘ygan. Ammo zamonaviy texnologiya bizga hali-beri kirib kelmasa kerak, degan o‘y bilan quyosh panellari haqida bir muddat unutdim.**

Shu yilning yoz oylarida dam olish uchun Toshkent viloyati Parkent tumaniga yo‘l oldik. Mashinada doimgi hamrohlarim — onam va xolalarim bor. Yo‘l-yo‘lakay ko‘chadagi yoritqichlarga ko‘zimiz tushdi. Bir qarashda oddiy, zamonaviy yoritqichlar. Ammo e’tiborimizni tortgan jihati boshqa: yoritqichlarning har biri ustki qismiga kichik hajmdagi quyosh batareyalari o‘rnatilgan. Ana sizga yangi texnologiyadan unumli foydalanish. Demak, yoritqichlar quyosh batareyalari orqali tabiiy yorug‘likdan olinadigan bepul elektr toki hisobiga ishlaydi. Bu anchagina samaradorlikka ega. Yo‘l bo‘ylab o‘rnatilgan yuzlab yoritqich quvvatni tabiiy manbadan olishi hisobiga umumiy tarmoqda qancha elektr energiyasi tejalishini tasavvur qilavering. Qolaversa, ularning ishlashi asosiy tarmoqqa bog‘liq bo‘lmagani bois, uzilishlar vaqtida ham ko‘chalar charog‘on bo‘lib turaveradi. Ochig‘i, quyosh nuri faqat kunduzi bo‘lishi, yoritqichlar esa tunda zarurligini inobatga olsak, batareyaning qanday ishlashi bilan ham qiziqdim. Balki batareyalar kun davomida oladigan elektr energiyasi maxsus akkumulyatorlarga to‘planib, tunda sarflansa kerak.

Shularni o‘ylarkanman, quyosh batareyalari haqida ko‘rganim o‘sha lavha va bu texnologiyadan biz ham foydalanishimiz haqidagi xayollarim yodimga tushdi. O‘shanda men tabiiy yorug‘likdan elektr energiyasi olishni chinakam kashfiyot deb hisoblagandim. Xayriyatki, zamonaviy ixtiro bizga ham kirib kelishiga kutganimdek uzoq vaqt ketmadi. Yurtimizda 2016-yildan boshlangan shiddatli islohotlar fonida bunday ilg‘or texnologiyalarning tez ommalashishi odatiy holga aylandi. Quyosh panellaridan foydalanish ham shunday, ko‘pchilik bunga darhol qiziqish bildirdi. Avvaliga ularni korxona, tashkilot-muassasalarga o‘rnatish boshlandi, bugungi kunga kelib esa ko‘plab xonadonlarning tomlarida quyosh panellariga ko‘zimiz tushyapti. Ayniqsa, ushbu qurilmani o‘rnatgan aholiga qator imtiyozlar berilgani iste’molchilarda katta qiziqish uyg‘otib, ularning soni ortishiga turtki bo‘lmoqda. Yurtdoshlarimiz o‘z xonadonlariga o‘rnatib, undan daromad ham olyapti.

### Bog‘bon mahallasidagi "quyoshli" uylar

Daromad ham o‘z yo‘liga, asosiysi, elektr energiyasi uchun to‘lovlardan yaxshigina tejamkorlik bo‘ladi. Masalan, xonadoniga quyosh paneli o‘rnatgan oila qurilma orqali oladigan elektr toki uchun davlatga hech qancha to‘lov qilmaydi, yorug‘lik nuri beradigan tok tekinga tushadi. Asosiy xarajat quyosh panelini sotib olishga sarflanadi. To‘g‘ri, qurilmaning narxi arzon emas. Kichik hajmdagi 2 kilovattli quyosh batareyasining bozor narxi 10-15 million so‘mdan yuqori. Ammo uning bir necha o‘n yil ishlashiga kafolat beriladi. Elektr energiyasiga to‘lovlarni tejash orqali qurilma xarajatini bir necha yildayoq chiqarib olish mumkin.

Bu, ayniqsa, kam ta’minlangan, ehtiyojmand oilalar uchun juda qulay. Yurtimiz bo‘ylab shunday oilalarga qo‘shimcha yordam bo‘lsin degan maqsadda 2 kilovattlik quyosh panellari o‘rnatib berilayotgani boisi shunda. Mazkur amaliyot o‘tgan yil 1-apreldan yurtimizda joriy etilgan "Quyoshli xonadon" dasturi doirasida boshlangan. Dastur esa Prezidentimizning 2023-yil 16-fevralda qabul qilingan "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori bilan ishga tushgan. U aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada qator imtiyozlar nazarda tutilgan.

Toshkent tumani "Bog‘bon" MFYda istiqomat qiladigan Naima opa mahalla tomonidan xonadoniga quyosh paneli o‘rnatib berilganini quvonib gapirdi. Aslida, qurilma avvalroq o‘rnatib ketilgan. Oradan bir muddat o‘tib, yaqinda ishga tushirib berilibdi. Xonadon a’zolari hozircha to‘lovlardagi o‘zgarishni kuzatmagan bo‘lsa-da, qurilma ishlayotgani va kunduzi elektr tokini quyosh batareyasi orqali olayotganlarini aytdi. Ammo kechqurun elektr toki o‘chib qolgudek bo‘lsa, qurilma ham ishlashdan to‘xtayotgan ekan. Gap shundaki, quyosh paneliga elektr tokini to‘playdigan akkumulyator o‘rnatilmagani bois, kechqurun tok ishlab chiqarmaydi va umumiy elektr tarmog‘idan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun elektr energiyasi uchun to‘lanadigan xarajatlar ham yaxshigina qisqarishiga qaramay, butunlay xalos bo‘linmaydi. Bordi-yu xonadon egalari akkumulyator o‘rnatsa, elektr tokini to‘liq quyosh batareyalari orqali ola boshlaydi va iste’moldan ortiqchasini davlatga sotishi ham mumkin.

— Kunduzi quyosh panelidan, kechqurun umumiy tarmoqdan foydalanamiz. Boisi akkumulyator qo‘ymaganmiz, — deydi Naima opa Eshonxo‘jayeva. — Ammo qurilma kun davomida elektr tokiga ketadigan xarajatlarimizni tejasa ham katta gap. Bu biz uchun harna yordam-da. Yana soliq to‘lovlarida imtiyozlar bo‘lishi, quyosh paneliga akkumulyator o‘rnatsak, davlatga elektr toki sotishimiz ham mumkinligini aytishdi. Ochig‘i, qurilmani yaqinda ishlatishni boshladik va hozircha biror muammo ko‘rmadik. Foydalanishda ortiqcha xarajat, qiyinchiliklari yo‘q ekan.

Ushbu oilada besh kishi istiqomat qiladi. Naima opaning kelini Muhabbat opa turmush o‘rtog‘ining vafotidan keyin 4 bola bilan yolg‘iz qolgan. Farzandlarining eng kichigi hali voyaga yetmagan. To‘g‘ri, oilaga doimiy yordam beradigan yaqinlari, qarindosh-urug‘lar bor, hech biri ularni yolg‘izlatib qo‘ymaydi. Ammo yolg‘iz ayolga baribir oson emas. Bunday vaqtda kichik ko‘mak ham tog‘dek ko‘rinadi. Qolaversa, Muhabbat opa tikuvchilik bilan shug‘ullanadi. Asosiy ish joyidan tashqari uyga ham ish olib kelib tikadi. Tikuv mashinasi elektr tokida ishlaydi. Ayolning aytishicha, yoz oylarida xonadon oyiga 170-190 kilovatt elektr energiyasi sarflagan. Kuz oylarida bu 130 kilovattga tushgan. Oila a’zolari imkon qadar elektr tokidan tejab foydalanishga harakat qiladi, ammo maishiy qurilmalar, kundalik ehtiyojlar va tikuv mashinasi ishlashi uchun baribir elektr toki zarur. U esa tekin emas. Shu jihatdan xonadonga quyosh paneli o‘rnatilgani ayni muddao bo‘ldi.

Toshkent tumani bo‘ylab mahallalarda kam ta’minlangan oilalarga 2 kilovattli quyosh paneli o‘rnatib berilayotgani ko‘plarning ro‘zg‘origa foyda keltiryapti. Aslida, hudud aholisining aksari istiholali odamlar. Qiynalgani, muhtojligini sira bildirmaydi. Biror ish bilan shug‘ullanib, tirikchiligini o‘tkazadi, nolimaydi. Ammo har bir mahallada "Temir daftar" degan ro‘yxat bor. Mas’ullar xonadonma-xonadon yurib, oilalarning ahvolini o‘rganadi, birortasiga ko‘mak zarur bo‘lsa, berishga intiladi. Tumandagi Bog‘bon mahallasi raisi Rustam Sultonmurodov ham doim aholi bilan hamnafas. Muhabbat opaning oilaviy holatidan xabardor. Ayol mehnat qilib, oilasiga daromad olib kirayotgan bo‘lsa-da, voyaga yetmagan farzandlari borligi sabab mahalladan kelib quyosh paneli o‘rnatib berishganidan quvondi.



— Mahallamizda 3434 kishi istiqomat qiladi. O‘ndan ziyod oila kam ta’minlangan, ehtiyojmand sifatida ro‘yxatga olingan, — deydi Rustam Sultonmurodov. — Ularga turli yo‘nalishlarda ijtimoiy yordam ko‘rsatib kelinadi. Shundan 6 ta xonadonga umumiy quvvati 2 kilovatt bo‘lgan quyosh paneli o‘rnatib, ishga tushirib berildi. Qurilma soatiga 2 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqaradi va bu bir oilaning kunlik ehtiyojini qoplaydi. Agar batareyaga qo‘shimcha sifatida akkumulyator sotib olib o‘rnatilsa, elektr quvvati zaxiraga to‘planadi. Ana shu zaxiradan kechqurun foydalanish yoki iste’moldan ortganini davlatga sotish mumkin.

Bu ham qo‘shimcha daromad topishning yo‘li. Keling, hisoblab ko‘ramiz. Masalan, bir oilaning elektr tokiga kunlik talabi barcha ehtiyojlarini qo‘shib hisoblaganda 5-6 kilovatt deb olaylik. Quyosh paneli esa soatiga 2 kilovatt elektr ishlab chiqaradi. Demak, 8 soatda 16 kilovatt zaxira to‘planadi. Bu iste’moldan 3-4 barobar ko‘p. Ana shu ortiqcha elektr tokini davlatga sotish mumkin. Buning uchun elektr tarmoqlari korxonasi bilan shartnoma imzolanadi va ular davlatga elektr energiyasi uchun to‘lanadigan narxdan bir necha barobar qimmatga sotib oladi.

Qurilmaning zaxira to‘playdigan akkumulyatorini o‘rnatish esa xonadon egalarining o‘z ixtiyorida. Surishtirganimizda akkumulyatorning har biri hozirgi bozor narxida 1 million so‘mdan oshishini aytishdi. Agar bir nechta akkumulyator o‘rnatilsa, to‘planadigan zaxira ham shuncha oshib boraveradi. Ayniqsa, quyoshli o‘lkamizda ushbu qurilmadan yil o‘n ikki oy foydalanish mumkin. Hatto quyoshning ozgina yorug‘ligi ham elektr toki ishlab chiqarish uchun yetarli bo‘ladi. Umumiy tarmoqqa bog‘liq bo‘lmagan holda beminnat elektr toki olishning afzalliklarini undan foydalanayotganlar yaxshi biladi.

### Kelajak loyihalari start oldi

Quyosh panellari o‘rnatgan aholi nafaqat o‘zi, balki mamlakat iqtisodiyotining ham barqaror o‘sishiga munosib hissa qo‘shadi. Yurtimizda ekologiya uchun zararsiz bo‘lgan muqobil energiya manbalaridan foydalanish ko‘lami ortadi. Shu bois, davlat bu borada fuqarolarni rag‘batlantiryapti. Bu O‘zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi katta harakatlarining bir qismi. Muqobil energiya manbalari orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish esa jahon energetika sohasining yangi va kelajak davri sanaladi. Mamlakatimiz bu yo‘lga faol kirib borayotgan davlatlardan biriga aylandi. "Yashil" iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi harakatlarimiz 2019-yildan boshlanganiga qaramay, qisqa vaqtda katta loyihalar ishga tushgani buning isboti.

Shu yilning 13-dekabr kuni barchamiz yana bir tarixiy voqelikka guvoh bo‘ldik. Poytaxtimizda yangi energetika quvvatlarini ishga tushirish hamda navbatdagilarini qurishga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazilib, davlatimiz rahbari boshchiligida qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi quvvat ishga tushirilib, navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berildi.

Voqeaning tarixiyligi shundaki, biz bundan 8 yil oldin "yashil" energetika haqida tasavvurga ham ega emasdik. Yurtimizda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi faqat xayoldek edi. Ammo hozir bu yo‘nalishdagi yangi va yirik loyihalar haqida gapiryapmiz. Vaholanki, o‘tgan qisqa davr mobaynida mamlakatimizda 3,5 ming megavattli yoki 10 milliard kilovatt-soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr quvvati ishga tushirilgani kichik raqamlar emas. Buning hisobiga 2024-yilda "yashil" energiya ulushi 16 foizdan oshirildi. Ya’ni ekologik toza energiya quvvatlari yiliga 2-3 karra ko‘paytirilyapti.

Bu orqali har bir xonadonga "yashil" energiya kirib borishidan manfaatdormiz. Ekologik toza, arzon elektr quvvatlari tabiiy manbalarni tejashimiz barobarida uzluksiz energiya bilan ta’minlanishimizga xizmat qiladi.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**"Yangi O‘zbekiston" muxbiri**

Jarayon

# QULAY BIZNES MUHITI

## ISHBILARMONLARNI YANGI MUVAFFAQIYATGA CHORLAYDI

**Joriy yil 16-dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida o‘tgan videoselektor yig‘ilishida banklarning aholi bandligini ta’minlashi, daromadli qilishi ortidan kambag‘allik darajasini kamaytirishga qo‘shadigan hissasiga e’tibor qaratildi. Shuningdek, oilaviy va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, yer resurslaridan unumli foydalanish, infratuzilma loyihalari, mikromoliya hamda faktoringni rivojlantirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilab berildi.**

Mazkur yig‘ilish banklarni muhim tuzilmaga aylantirishga katta hissa qo‘shadi. Banklar faoliyatini mahallaga ko‘chirish orqali aholi turmush tarzini to‘g‘ri va xolisona baholash imkoniyati tug‘iladi. Kredit va boshqa moliyaviy resurslardan foydalanishi ta’minlanadi.

Kecha poytaxtimizda "O‘zsanoat-qurilishbank" tomonidan tadbirkorlar ishtirokida biznes uchrashuvi tashkil etildi. 100 ga yaqin ishbilarmon bilan muloqotda tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb qilib, bandligini ta’minlash va daromadini oshirish borasidagi ishlar natijasida qariyb 8000 ta tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, barcha yo‘nalishlar hisobiga 262 mingdan ortiq yangi ish o‘rni ochildi.

Kelgusi yilda bank tomonidan Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G‘ijduvon tajribalari asosidagi ishlar izchil davom ettiriladi. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagidagi fuqarolarga "Biznesga ikkinchi



bankdagi turli kredit mahsulotlari, onlayn faktoring, "Green banking", eksportni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishidagi moliyaviy takliflar, shuningdek, "SQB Business" mobil ilovasi va undagi onlayn xizmatlar haqida batafsil ma’lumot berildi.

Bank huzurida tashkil etilayotgan Mikromoliya va faktoring kompaniyasi, startaplarni biznesga aylantiradigan akseleratorlar faoliyati xususida fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari yaqinda mamlakatimiz yetakchi tadbirkorlari bilan uchrashuvda **"Keng ko‘lamli islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab men bir fikrni doim ta’kidlab kelaman: tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam.**

**Shu bois, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo‘g‘ingacha — barcha rahbarlarning kundalik ishi bo‘lishi shart",** dedi. So‘nggi yillarda Prezidentimizning tadbirkorlar bilan o‘tkazayotgan ochiq muloqotlari tufayli soha egalarining ijtimoiy mas’uliyati ortib borayotir. Birgina misol, o‘tgan qisqa muddatda tadbirkorlarimiz kambag‘al oilalarning 387 ming a’zosi va nogironligi bor 40 ming odamni daromadli qildi.

Prezidentimizning yig‘ilishda **"2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘ladi",** deyishidan maqsad endi banklar, mahalla, hokimliklar va tadbirkorlar hamkorligidagi yangi model mamlakat miqyosida ommalashtiriladi.

Bu jabhada "O‘zsanoatqurilishbank" barcha iqtisodiy dasturlarda faol qatnashmoqda. Xususan, joriy yilda bank qadam" va "Tezkor kredit" kabi imtiyozli kreditlar taklif etiladi. "Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash" dasturi doirasida soddalashtirilgan kreditlar ajratiladi.

2025-yilda barcha yo‘nalish hisobiga 400 ming kishining bandligi ta’minlanadi. Shundan 240 mingga yaqini tadbirkorlikka jalb qilinadi.

— Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlab, yangi ish o‘rinlarini yaratish borasida bank tizimida alohida yondashuvlar ham mavjud. Masalan, bir hududdagi salohiyatli tadbirkorga kam foizli kredit berib, loyihasini og‘ir tumanda tatbiq etish orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo‘shilmoqda, — deydi "O‘zsanoatqurilishbank" ATB boshqaruvi raisi o‘rinbosari Sanjar Abduvaliyev. — Prezidentimiz ushbu tashabbusimizni ma’qullab, uni boshqa tijorat banklarida ham qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatma berdi. 2025-yilda mazkur tajribani davom ettirib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatiga boshqa hududlardan tadbirkorlar jalb qilishni mo‘ljallaganmiz.

Poytaxtlik tadbirkorlar bilan uchrashuvda shu maqsadda shakllantirilgan 30 dan ortiq loyiha, ularni tatbiq etishga doir imtiyoz hamda xalal berayotgan masalalar muhokama qilindi.

Biznes-motivator Hasan Mamasaidov ishtirokchilarni jahon biznes hamjamiyatida qo‘llanayotgan yangi tamoyillar, tarmoqlar va texnologiyalar bilan yaqindan tanishtirdi. Shuningdek, loyihalarni puxta amalga oshirishga doir zamonaviy nazariy qarashlar haqida ma’lumot berdi.

**Sardor TOLLIBOYEV,**
**"Yangi O‘zbekiston" muxbiri**

E’tirof

# "YIL AYOLI" TANLOVI G‘OLIBLARI TAQDIRLANDI

**Poytaxtimizda "Yil ayoli" milliy tanlovining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.**
**Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva tadbirni ochib, mamlakatimizda keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoyalash, oilalar farovonligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar qilinayotganini ta’kidladi.**
**Bu jarayonda sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi takomillashtirilib, 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.**

Xususan, xotin-qizlarning huquq va manfaatini ta’minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha eng quyi bo‘g‘in — mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. Mahallalarda xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi. Ayollar mehnati to‘liq yoki qisman qo‘llanilishi taqiqlanadigan mehnat sharoiti noqulay bo‘lgan ishlar ro‘yxati bekor qilindi.

Xotin-qizlar ilm-fan bilan shug‘ullanishi uchun barcha sharoitlar yaratilyapti. Qizlarning oliy o‘quv yurtlarida o‘qishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar, maxsus kvotalar ajratilmoqda. Magistraturada o‘qiydigan qizlarning kontrakt to‘lovlari to‘liq davlat byudjetidan qoplab berilmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 52,2 foizni tashkil etmoqda. Ularning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 37, siyosiy partiyalar tarkibida 49 foizga yetgani opa-singillarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar samarasi, albatta.




Mamlakatimizning gender tenglik sohasidagi yutuqlari xalqaro darajada ham munosib e’tirof etilayotgani quvonarli. Jumladan, O‘zbekiston 2024-yilda gender tenglik va boshqaruv indeksi bo‘yicha 72,8 ball to‘pladi. Bu orqali 2022-yildagi 103-o‘rindan 51 ta pog‘ona ko‘tarilib, 52-o‘rinni egalladi.

Ayni paytda "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini yanada oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatini ta’minlashga oid chora-tadbirlar izchil davom etyapti. Bu jarayonda ayollarning intilish va ezgu tashabbuslarini keng qo‘llab-quvvatlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish doimiy e’tiborda.

"Yil ayoli" milliy tanlovini o‘tkazishdan maqsad ham jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni aniqlash, faoliyatini keng jamoatchilikka yaqindan tanishtirish hamda ilg‘or ish tajribalarini ommalashtirishdir.

Tanlovda Olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha Nukus oliy mahorat maktabi o‘qituvchisi Nigora Polvonova oliy o‘rin sovrindori bo‘ldi va Prezident sovg‘asi — avtomobil bilan mukofotlandi. Shuningdek, 1-, 2-, 3-o‘rin g‘oliblari va 12 ta nominatsiya bo‘yicha sovrindorlar ham taqdirlandi.

— Ilm-fan yo‘nalishida yil ayoli sifatida e’tirof etilganimdan juda mamnunman, — deydi "Yilning eng faol olima ayoli" nominatsiyasi sovrindori, Toshkent davlat pedagogika universiteti professori Aziza Muxtorova. — So‘nggi yillarda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli barcha jabhalarda ularning faolligi oshmoqda. Xususan, bizning jamoamizda ishlayotgan olima ayollar ham bu imkoniyatdan unumli foydalanib, talabalarga ilm-fan sirlarini chuqur o‘rgatish barobarida jamiyat farovonligiga yo‘naltirilgan katta loyihalarni hayotga tatbiq qilmoqda.

Tadbir doirasida namoyish etilgan konsert dasturi ishtirokchilarga ko‘tarinki kayfiyat baxsh etdi.

**Bahor XIDIROVA,**
**"Yangi O‘zbekiston" muxbiri**

## Taraqqiyot mezoni



**Furqat JO‘RAQULOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti prorektori, siyosiy fanlar doktori, professor**

**Har qanday boshqaruv samarali natijasi va hayotiyligi bilan baholanadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat boshqaruvi tizimi darajasini ko‘tarish, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar faoliyatini yanada isloh qilish, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va bosqichma-bosqich oshirib borish, xalq manfaatlarini ta’minlash orqali ularni rozi qilish Prezidentimiz boshqaruv siyosatining o‘zagini tashkil etadi.**



# YANGICHA FIKRLAYDIGAN, SADOQATLI RAHBAR KADRLAR

## ULAR BILAN KO‘ZLANGAN MAQSADGA YETISH, MARRALARNI ZABT ETISH OSON

Bunday katta maqsadlarga erishish uchun bizga buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida sanab o‘tgan ma’naviy yetuk, axloqiy shakllangan, jasur, fidoyi, sadoqatli rahbar kadrlar juda zarur.

Zero, yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans voqeligini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlarni yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarini ilm-fan taraqqiyoti va uning yuksak natijalari bilan uyg‘un holda tashkil etish orqali ko‘zlangan buyuk maqsadlarga erishish barchamiz, ayniqsa, rahbar kadrlarga katta mas’uliyat yuklaydi.

Bu yo‘lda esa, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “**Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak”** bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, global konyukturadagi o‘zgaruvchan vaziyat va uning yurtimizga salbiy ta’sirini kamaytirish, shu asosda aholi farovonligini ta’minlashga qaratilgan izchil siyosat samaradorligi ko‘p jihatdan hududlardagi hokimlar, o‘rinbosarlari va mahalliy boshqaruv tuzilmalari faoliyatining qanday ishlayotganiga bevosita bog‘liq. Bunday vaziyatda ular ishning qayerdan boshlanib qayerda tugashi, ya’ni **xalqchil islohotlar zanjiri**ni anglashi zarurati yanada ortadi. Bundan tashqari, barcha ishlarni quyidan, mahalladan boshlab yuqorilab borish taktikasi samarasini his etish va anglash, **“davrning, hayotning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun barchamiz har kuni o‘qib-o‘rganishimiz, o‘z ustimizda ishlashimiz, bilim va saviyamizni doimo oshirib borishimiz kerakligi”**ni taqozo etadi.

Prezidentimiz joriy yilgi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining saylovdan keyingi birinchi yig‘ilishidagi nutqida **“Mamlakatimiz o‘z oldiga qo‘ygan strategik va joriy vazifalarni amalga oshirishda, barcha bo‘g‘indagi ijro organlari, avvalo, hukumat va uning rahbari zimmasidagi mas’uliyat hozirgi murakkab zamonda har qachongidan ham ortib bormoqda. Xalqimiz bugun yangi hukumatdan aniq natijalarni kutmoqda”,** degan fikri davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inidagi rahbar kadrlardan o‘z zimmasidagi vazifalarni amalga oshirishda sadoqat bilan ishlashni talab etadi.

Davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan kelib chiqib, yangi loyiha ishga tushirildi. Ushbu loyiha doirasida joriy yilning 2-19-dekabr kunlari belgilangan rejaga muvofiq, respublikamizning barcha hududlarida tuman (shahar) hokimlari o‘rinbosarlari, tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari hamda milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar uchun **“Mahalliy davlat boshqaruvi va aholi bilan ishlashni samarali tashkil etishda talab etiladigan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish”** mavzusida o‘quv-amaliy seminar tashkil qilindi. 28-29-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida hududlardagi o‘quvlarni amalga oshiruvchi trenerlar tayyorlashga qaratilgan o‘quv-amaliy seminar o‘tkazilib, unga mamlakatimizdagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, davlat boshqaruvi organlari mas’ullari va bugungi kunda ilm-fan sohasida ilg‘or izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar jalb qilindi. Bu esa hududlardagi o‘quv-amaliy seminarlar samaradorligi oshishi, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash, joylardagi mahalliy muammolar yechimiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini taqdim qildi. Mazkur tashabbusning yana bir muhim jihati shundaki, avvallari bunday ko‘lamdagi o‘quvlar faqatgina Davlat boshqaruvi akademiyasida tashkil etilar va unda cheklangan rahbar kadrlar ishtirok etar edi. Bu safargi o‘quvlarning esa bevosita hududlardagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari bazasida tashkil qilinishi mahalliy hokimliklar va ijro hokimiyati tizimi organlari hududiy mas’ullarida sergaklik, ijro intizomidagi sadoqat ruhiyatini mustahkamlash bilan birga zaxira kadrlarning ham bevosita jarayonda ishtiroki kelgusida professional faoliyatidagi amaliy ko‘nikmalari shakllanishiga xizmat qiladi.

E’tibor qaratish lozimki, har bir hududdan 150-200 nafargacha tuman (shahar) hokimlari o‘rinbosari, tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari hamda milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar ishtirok etishini inobatga oladigan bo‘lsak, bunday keng qamrovdagi kontingentni o‘quvlarga jalb qilishda hududiy o‘quv seminarlarini tashkil qilish o‘zini oqlaydi.

Mazkur o‘quvlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, avvalo, amaliy tasdig‘ini topayotgan noyob tizim, ya’ni xalqning ichiga kirib, muammolarni joyida hal etish tizimi samaradorligini yanada oshirish hamda ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini odamlarga yaqinlashtirish, aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samarali ishlashi uchun mas’ul rahbar kadrlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga, har bir hududdagi o‘quvlar dasturiga mahalliy muammolar qo‘yilishi, ularning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslar ilgari surilishi, qolaversa, jarayonlar viloyat boshqaruvi darajasidagi rahbar kadrlar moderatorligi asosida tashkil etilishi, pirovardida **“islohotlar samarasi xalq hayotining har bir jabhasida sezilishi kerak”** g‘oyasi ijrosi uchun yangicha mexanizmlardan biri bo‘ldi, desak adashmaymiz.

Yangi tizimning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri o‘quv-seminar dasturi mazmunan tematik yondashuvga tayanilganidir. Mashg‘ulot mavzularidagi izchillik, nazariyadan amaliyotga bosqichma-bosqich o‘tib borish, zaruratdan natijaga qaratilganlik, ish va amal birligi hamda rahbar va fuqaro munosabati,



islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish kabi tamoyillarga asoslangani tinglovchilar o‘zlashtirishining yuqori natijadorligini ta’minlash imkonini berdi.

Hududiy o‘quv-seminarlarni tashkil qilish va o‘tkazishda Prezidentimizning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining yig‘ilishlaridagi ma’ruzalarida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqib qator masalalar muhokamasi mavzuli jihatdan aks ettirildi. Biz ularni shartli ravishda besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

**Birinchidan,** O‘zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari va istiqboldagi davlat siyosatini shakllantirishning konseptual asoslari hamda boshqaruvda kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan masalalar muhokamasi. Hududiy seminarlarda ushbu yo‘nalishda quyidagi masalalar muhokama qilindi: Prezidentimizning 2024-yil 18-20-noyabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatidagi nutqlarida ijro organlari rahbarlari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar, kadrlar salohiyatini oshirish, tarmoq va hududiy darajalarda samarali rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish.

**Ikkinchidan,** 2025-yil va yaqin istiqbolda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, barqaror rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish.

**Uchinchidan,** globallashuv davrida mintaqamiz va respublikamiz barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatayotgan zamonaviy chaqiriqlardan kelib chiqadigan vazifalar.

**To‘rtinchidan,** aholi muammolari bilan ishlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

**Beshinchidan,** hududlardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish va korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish.

Haqli ravishda aytish mumkinki, bugungi kunda rahbar kadrlar, xususan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat ijro organlari kadrlarining siyosiy ong va madaniyati yuksalib bormoqda. Bu tendensiya pirovardida **“davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish kerak”** g‘oyasining amaliy tasdig‘iga ko‘chmoqda, deyish mumkin. Qat’iy tartib-intizom, sadoqat va vatanparvarlik, elu yurt dardi bilan yashashga bo‘lgan ishonch va uning e’tiqodga aylanishi xalqning davlat tizimiga ishonchi va hurmatini oshirishga undayotgani ham rost. Hududlarda tuman (shahar) hokimlari o‘rinbosarlari, tashkiliy-kadrlar guruhi rahbarlari hamda milliy kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlarning yangi davr talablari asosida malaka va ko‘nikmalari oshirib borilishi bunday ishonchning ortishida muhim asosdir. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvlarning hududlardagi yetakchi oliy ta’lim muassasalari bazasida tashkil etilishi yo‘lga qo‘yilishi bu boradagi yo‘nalish to‘g‘ri belgilangani va mukammal tizimga solinganidan dalolat beradi.

Bugun davlat boshqaruviga yangi avlod kirib kelmoqda. Zaxira kadrlarning aksarini yosh avlod vakillari tashkil qilmoqda. Albatta, ulardagi ko‘nikmalar hali to‘liq shakllanmagan. Bundan tashqari, davlat mulozimi sifatida o‘z ishiga fidoyilik, vatanparvarlik, daxldorlik tuyg‘usining naqadar muhim ekanini to‘liq anglashda yonma-yon o‘quvlarda qatnashayotgan hokim o‘rinbosarlari misolida ularga qo‘yilayotgan yangicha talablarni his qilish va kelgusi professional faoliyati trayektoriyasini aniqlash imkonini ham berdi. Shu jihatdan ushbu o‘quv-seminar o‘ziga xos tajribalarni almashish maydoni sifatida ham ahamiyatlidir.

Mazkur o‘quvlarning o‘ziga xos yangiliklaridan yana biri Davlat boshqaruvi akademiyasida hokim va hokim o‘rinbosarlari, davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari rahbar kadrlarini o‘qitish, tayyorlash va malakasini oshirib borish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, endi mahalliy darajada, hududlarda zaxira kadrlar bilan birgalikda quyi bo‘g‘in rahbar kadrlarning malaka va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan yirik loyihaga aylanmoqda. Bu loyiha yangicha fikrlaydigan, zamon talablariga javob beradigan **kadrlar zanjiri** shakllanishiga zamin yaratadi.

Prezidentimiz ma’naviyat masalasiga takror e’tibor qaratgani bejiz emas. **“Bizning ikkita o‘q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma’naviyatdir”,** dedi.

Buni barchamiz, ayniqsa, davlat xizmatchilari teran anglab olishi shart. Davlatimiz rahbarining chaqirig‘i mohiyatini tushunish va bu boradagi safarbarlikdan chetda qolmaslik lozim. Shu nuqtayi nazardan, malaka oshirish o‘quvlari orqali amaldagi rahbar va zaxira kadrlarga shunchaki ma’lumot yetkazish, ma’ruzalar bilan bugungi kun manzarasini bayon qilish emas, balki ularni yangi chaqiriqlar va sog‘lom safarbarlikka chorlash va ishontirish vazifasi turibdi. Bu esa o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi.

Yana bir gap. Prezidentimiz o‘z lavozimiga kirishgan ilk davrda bizga sadoqatli kadrlar kerakligi, tajribalar bosqichma-bosqich shakllantirib borilishini ko‘p bor ta’kidlagan edi. Mana endi bu zarurat yanada oydinlashib, davlat xizmatchilarini tayyorlash, vatanga, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Mahalliy darajadagi rahbar kadrlarning siyosiy irodasi, siyosiy ong va boshqaruv madaniyati, o‘ziga xos siyosiy imijini shakllantirish ham davr talabiga aylandi. Buni biz oddiy kiyinish madaniyati, ovqatlanish, muomala va muloqot qoidalariga amal qilishdan tortib, mahalliy darajadagi masalalarni hal qilishdagi siyosiy hushyorlik, zamonaviy siyosiy texnologiyalarni tushunish va qo‘llay olishgacha bo‘lgan jabhalarda ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan, fikrimizcha, yangi formatda tashkil qilinayotgan o‘quv-seminarlar dasturlarini yanada boyitish, qamrovini oshirish maqsadga muvofiq.

O‘quv-seminarlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati borasida so‘z borganda esa, avvalo, mamlakatimiz oldida turgan makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirish va shu orqali aholi farovonligini ta’minlashda mas’ul rahbar kadrlar salohiyatini yuksaltirish hamda shaxsiy tashabbuskorligini rag‘batlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Chunki turli hududlarda joriy qilingan o‘ziga xos yangi modellar, tajribalarni ommalashtirish, ijtimoiy hayotimizga yangi innovatsiyalarni joriy qilish bevosita mahalliy rahbar kadrlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, bugungi kunda Markaziy Osiyo o‘zining geosiyosiy joylashuvi tufayli global ishonch inqirozi va mojarolar keskinlashuvining barcha salbiy oqibatlarini to‘liq boshdan kechirmoqda. Yevroosiyo hududida va Yaqin Sharqda sodir bo‘layotgan voqealar mintaqaning barqaror rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatmoqda, yangi-yangi to‘siqlar paydo bo‘lmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etish eng dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimizning **“Mana shunday g‘oyat tahlikali vaziyatda biz faqat kuchli iroda, birlik va hamjihatlik, qattiq mehnat bilangina yurtimizda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga erisha olamiz”,** degan da’vatining siyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy mohiyatini teran anglashimiz lozim.

Bugungi global axborot maydoni ta’sirchan g‘oyaviy kurash maydoniga aylandi. Axborot oqimi kuchaydi. Ijtimoiy hayotimizda axborotning profitsitligi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda har bir davlat xizmatchisidan yuqori darajadagi mediasavodxonlik talab qilinmoqda. Mamlakatimizda davlat organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tobora kengayib bormoqda. Kelgusida davlat fuqarolik xizmatchilari uchun tashkil qilinadigan o‘quvlarda shu kabi mavzularning ham muhokamaga tortilishi ayni muddao bo‘ladi.

Haqli savol tug‘iladi: bu borada kelgusida nimalarga e’tibor qaratish lozim? Bu bilan ishlar tugaydimi? Yo‘q! Shuning uchun ham Prezidentimizning sadoqatli davlat xizmatchilariga chaqiriqlari oldimizga ko‘plab vazifalarni qo‘ymoqda.

Rahbarlar va rahbarlikka zaxira kadrlarni hududlarda o‘qitishni tashkil qilishga qaratilgan yangicha tashabbusni ommalashtirish, tizimli yo‘lga qo‘yish, tashkiliy va mazmunan orttirilgan tajribalarni boyitish, yangi mexanizmlarni joriy qilish asnosida bundan keyin ham davom ettirish o‘zini oqlaydi. Chunki aholining turmush tarzini yanada yaxshilash, ularda shukronalik va rozilik ruhini qaror toptirish, pirovardida xalqning davlat va davlat boshqaruv tizimiga bo‘lgan ishonchini orttirish bugungi siyosatdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biridir. Bundan tashqari, mahalliy rahbarlarga aholi tomonidan beriladigan baho, avvalo, ularning ishi, xizmat va muomala madaniyati, siyosiy, huquqiy va axloqiy saviyasiga qarab beriladi, bu esa, o‘z navbatida, davlat hokimiyatiga berilgan baho hamdir.



**Bahodir BOBORAJABOV,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent**

# BEBAHO MEROSIMIZNI TARG‘IB QILISH – HAR BIRIMIZNING VAZIFAMIZ



## Hamkorlik

**Xalqimiz madaniyati nihoyatda boy, xilma-xil. Unda tarix va kelajakning o‘zaro uyg‘unligi mujassam, desak to‘g‘ri ta’rif bergan bo‘lamiz. Moddiy boyliklar deysizmi, ma’naviy boyliklarmi — ajdodlarimiz qoldirgan bebaho meros bilan har qancha faxrlansak, bunga asosimiz bor.**

Me’morlik, hunarmandlik, musiqa kabi sohalardagi tarixiy boyliklarimizni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan har qanday xorijlik nazarida hayrat aks etmay qolmaydi. Xalqimiz naqadar shonli o‘tmishga egaligiga ishonch hosil qiladi. Biroq globallashuv davrida faqat shular bilan faxrlanib o‘tirishning o‘zi yetmaydi. Bugun ularni yosh avlod tafakkuriga singdirish, qolaversa, dunyo bo‘ylab yanada keng targ‘ib qilish har birimiz uchun o‘ziga xos mas’uliyatdir.

Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixi, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini xorijiy davlatlarda keng targ‘ib qilish, ular bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi tuzilgan edi.

Shunga ko‘ra, joriy yil 8-15-dekabr kunlari Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori, professor Botir Usmonov boshchiligidagi jamoa hamda 10 kishilik delegatsiya Avstriya va Slovakiyada xizmat safarida bo‘lib qaytdi.

Safar davomida Vena shahridagi Vebster universiteti filiali, Vena universiteti hamda Bratislava iqtisodiyot va menejment universiteti bilan hamkorlikda mamlakatimizning boy madaniy merosi, iqtisodiy, sayyohlik va gastronomik salohiyatini targ‘ib qiluvchi taqdimotlar o‘tkazildi. Tadbir doirasida milliy hunarmandlik namunalari, milliy liboslar ko‘rgazmasi, UNESCOga kiritilgan milliy raqslar va kuylar talabalar ijrosida namoyish etildi, tadbir qatnashchilariga xalqimizning milliy taomi — palov tortildi.

Mazkur tadbirlarda diplomatik korpus, siyosiy, biznes, ilmiy-ma’rifiy doira vakillari hamda nufuzli oliygohlarda tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar ishtirok etdi.

Bratislava iqtisodiyot va menejment universitetida o‘tkazilgan taqdimotda muassasa rektori Lyubosh Chibak o‘zi rahbarlik qilayotgan mazkur oliygoh O‘zbekiston va Slovakiya o‘rtasida nafaqat ta’lim, balki madaniyat sohasida ham “ko‘prik” vazifasini bajarayotganidan xursandligini ta’kidladi.



Vena shahridagi Vebster universiteti filialida tashkil qilingan taqdimotda oliygoh direktori Samuel Shubert mamlakatimizga, xalqimizga cheksiz hurmat izhor qilib, bu kabi tadbirlar xalqlar, madaniyatlarni birlashtirishga samarali xizmat qilishini qayd etdi.

Shuningdek, Vebster universiteti bosh direktori Rayan Gaffeyning Shveysariyadan Venaga ayni tadbirlarda ishtirok etish uchun yetib kelgani O‘zbekiston bilan ta’lim sohasidagi hamkorlik yuqori darajada ekanini yana bir karra isbotladi.

Taqdimotda professor Tug‘rul Kurt so‘zga chiqib, O‘zbekiston xalqining islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan katta hissasini nafaqat kitoblardan o‘qib, balki Samarqandga tashrifi chog‘ida o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga muyassar bo‘lganini mamnuniyat bilan e’tirof etdi. U mamlakatimizning boy tarixini xorijiy yosh olimlar o‘rganishi uchun maxsus o‘quv kurslar tashkil qilinishi lozimligini ta’kidlab, bu yo‘nalishda hamkorlikni rivojlantirishga tayyorligi va kelgusi yili O‘zbekistonga yana borishni rejalashtirayotganini aytdi.

Taqdimot doirasida delegatsiyalar o‘rtasida 2025-yil davomida kimyo sohasida mutaxassislar tayyorlash mavzusi bo‘yicha avstriyalik professorlar bilan onlayn uchrashuv tashkil qilish hamda Vena universiteti talabalaridan bir guruhining 2025-yil aprelida O‘zbekistonga safarini uyushtirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Delegatsiya rahbari, professor Botir Usmonov O‘zbekistonning Avstriya va Slovakiyadagi faxriy konsullari hamda Vena universiteti fizik-kimyo departamenti rahbari o‘rinbosari Piter Libersayt bilan ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazib, o‘zbek talabalari, magistrant va doktorantlarining malakasini oshirish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishga kelishib oldi.

Xalqimizning shonli tarixini targ‘ib qilishga mo‘ljallangan bu kabi tadbirlar xalqaro miqyosda mamlakatimiz obro‘sini oshirish bilan birga sayyohlik imkoniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Boisi, bugun turizm taraqqiy etgan mamlakatlarning barchasi xuddi shunday yo‘l tutganini tarixiy dalillarning o‘zi isbotlaydi. Bu kabi madaniyat targ‘ibotlarini yanada rivojlantirish, qamrovini oshirish, yoshlarning ishtirokini kengaytirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanishi kerak.

**Erkin Vohidov ezgu so‘z va amal uyg‘unligi, fikr va ish birligi, xalq va haq tomonida sobit tura oldi, xalqning vijdoniga aylandi. Davlat mustaqilligi, yurt erki, milliy til tirikligi, xalq farovonligi yo‘lida kurashib, elimiz yuragidan joy olgan o‘zbek ziyolisi, o‘zbek fenomeni darajasiga chiqdi.**

## 28-dekabr — O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludi kuni

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yildayoq “O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorni imzolab, tarixiy adolatni tikladi. Davlatimiz rahbari ulug‘ ijodkorlarni xotirlab, bunday buyuk odamlar millat g‘ururi, iftixori, xazinasi ekanini aytgan va “Hamma narsa e’tibor va munosabatda”, deya ta’kidlagan edi. Shundan so‘ng yurtimizda adabiyotga, millat ma’naviyatiga qaratilgan islohotlarning yangi davri boshlandi.**







# TO QUYOSH SOCHGAYKI NUR

## Erkin Vohidovning ezgulikka esh bo‘lgan umr hikmati

O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovni eslaganimda mudom ko‘zimga yosh keladi. Inson jigaridan ayrilgandagi iztirobni his etaman. Ayni dam garchi vido qo‘shig‘i aytilgan, ruh baqoga ko‘chgan bo‘lsa-da, shoirni juda yaqindek, xuddi oramizda yurganday sezaman. Avvaliga bu qorishiq tuyg‘uning nomini topib bo‘lmaydi. So‘ng anglay boshlaymanki, shoir ko‘nglimizda abadiy yashayapti!

Qalbingdagi bu yaqinlik tuyg‘usi o‘sha “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” bilan ko‘nglingga kirgan. So‘ng u erkka tashna ruhingda “Ruhlar isyoni”ni boshlagan kezdan beri birga ulg‘ayganingni tuyasan. Bu vaqtda anglamlaring har bir hujayrangni zabt etgan, shoir esa qahramoningga aylanib ulgurgan bo‘ladi. Endi sen ular bilan yashay boshlaysan. Ular senga kuch va ilhom bag‘ishlaydi. Yaratganning xos bandalari shu missiya uchun yaratilishini tushuna boshlaysan...

Erkin Vohidov odamiylik rutbasini shu qadar baland tutgan ediki, bu dunyoning odamiga o‘xshamasdi. Shundanmi, mehrimiz va muhabbatimiz cho‘ng bo‘ldi.



### Oila tanlovi

Vohidovlar oilasiga havasmandlik ila ustozning rafiqasi Gulchehra onamdan qanday uchrashganlarini so‘raganimda bunday so‘zlab bergandi:

“O‘shanda jurnalistika institutida o‘qirdik. Bir kuni darsga kirayotsak, zinaning chetida beshinchi kurs yigitlari gurunglashib turgan ekan. Shu payt birdan qattiq shamol turdi. U davrda keng, kalta yubkalar urfga kirgandi, qarasam, shamol esgan sari yubka ko‘tarilib, odamni xijolatga qo‘yadigan. O‘rtoqlarimdan ajralib, shitob qaytdim-da, do‘kon orqasiga berkindim. Yo shamol to‘xtasin, yo anavi yigitlar kirib ketsin dedim. Qo‘ng‘iroq chalinib, yigitlar ko‘tarilishi bilan sekin orqalaridan kirib oldim. Buni qarangki, o‘sha yigitlar davrasida Erkin akam ham bo‘lib, meni zimdan kuzatib, ko‘z ostiga olib, ko‘nglidan o‘tkazib qo‘ygan ekan. “O‘shanda sizga saraf solib, kuzatgan edim, iffatingiz sabab yuragimdan joy olgandingiz. Lekin men bitiruvchiman, qo‘limda bir so‘m pulim yo‘q, uy-joyim yo‘q. Endi uylangunimgacha bu qizlar kimniki bo‘lib ketadi-yu deb o‘ylagandim”, degan edi Erkin akam to‘ydan keyin.

Taqdirni qarangki, o‘qishni tamomlab, nashriyotga amaliyot o‘tashga borganimda, Erkin akam meni ko‘rib, o‘ziga sig‘may ketgan ekan.

Erkin akam uylanish yoshiga yetgan bo‘lishiga qaramay, sharoit yo‘q, tog‘asining qo‘lida edi. Meni tanlaganidan keyin ham oilalar o‘rtasida farq kattaligi uchun unashtiruvimiz ancha qiyinchiliklar bilan bo‘lgan. To‘ydan oldin Erkin aka kelib:

— Besh kun tursangiz, besh kun baxtliman, uch kun tursangiz, uch kun baxtliman. Bir hafta, o‘n kunni aytolmayman, — degandi.

Mana, o‘sha dargohda besh kun, o‘n kun emas, ikkita bolali bo‘lguncha turdik. Baxtli hayot kechirdik. Men Erkin akaday inson bilan hayot kechirganim uchun taqdirdan, Yaratgandan behad minnatdorman”.

Erkin Vohidov umr yo‘ldoshi tanlayotganda hayo va iffat tanlovini qilgan ekan. Shu bois, sharqona madaniyat va qadriyatlar qadrlangan oila qo‘rg‘onini yaratdi. Gulchehra Vohidova bilan Nozima, Mohira, Fozila kabi oqila qizlar va Xurshid akadek munosib farzandlar tarbiyaladi. Bugun Vohidovlar sulolasi otameros qadriyatlarda sobitqadam.

### Zarofat egasi

Erkin Vohidov yaxshilik haqida yozish barobarida hayotda ham yaxshilik qilishdan charchamagan...

Bir kuni qo‘shni ayol uylariga go‘shtqiymalagich so‘rab kiradi. Ittifoqo bunga guvoh bo‘lgan ustoz hayratlanib, qizidan so‘raydi:

— Qo‘shni xolangizning uyida go‘shtqiymalagich yo‘qmi?

Qaqajon qizi rostini aytib qo‘yadi:

— Adajon, mahallamizda faqat bizda va falonchi xolada bor, shuning uchun so‘rashadi.

Bu voqeadan keyin u butun mahallaga yetarli go‘shtqiymalagich xarid qilib, olib kelib qo‘yadi. Faqatgina 8-mart bayrami bahonasida qizi orqali hadyani ulashadi.

Katta shoir uchun bu kichikdek ko‘rinar, lekin bunda ustozning ziyrakligi va zarofatini sezasiz.

### Kengfe’l, ko‘ngil odami

Yana ustozni o‘rganish ishtiyoqida Gulchehra onamni so‘roqlab, shoirimizning kengfe’l va ko‘ngil odami ekani isbotini topgandim. Bu haqda shoirning rafiqasi bunday degandi:

“1966-yili yer qimirlaganida Sebzorda, rahmatli tog‘amiz bilan birga yashardik. Hudud zilzila o‘chog‘i bo‘lgani uchun ko‘plab uylar qatori bizniki ham darz ketib, o‘pirilib tushdi. Keyin majburiyatdan alohida bo‘lib chiqdik. Aslida, Nozimaxon qizim bir yoshga yetganida o‘z uyimizni ko‘tarib, tomini yopib qo‘ygan edik. Kuzda tog‘amiz “Erkin, endi uyingga bor, bormaguningcha uying bitmaydi”, dedi. Ikki xonali, qorasuvoq uyga ikki bolam bilan ko‘chirib kelishdi. Boshqa iloj ham qolmagandi. Boisi yangi uyning darvozasi yo‘q, o‘rniga taxta qoqib qo‘yishgan. Bormasak qurilishga g‘isht, taxta tushiriladi, hammanikida shu hol bo‘lgani uchun ko‘pincha egasiz uyni talab olib ketib qolishardi.

Bir kuni Erkin akam yangi uydan xabar olay deb boribdi. Ko‘rsaki, yaqinda olib kelingan g‘ishtni ko‘chada bir kishi aravachaga ortib uyiga tashiyotganmish. Shu qadar keng ediki, “Yo‘l uzoq, ko‘chaning boshidan sekin borgunimcha axir oladiganini olib olar”, deb yerga qarab o‘ylab borayotganmish. O‘g‘rining oldiga yetib boribdi hamki, aravachani bo‘shatib, yana to‘ldirayotganmish. Bir oz o‘zini bosib turibdi, yo‘q, ish avjidamish. Shunda ham sekin tepasiga kelib salom beribdi.

— Assalomu alaykum, hormang!

— E, salomat bo‘ling, bolam, egasi shuni olib qo‘ying, degandi, shunga tashiyotgandim, — deb pinagini buzmay yana bemalol ishini davom ettiraveribdi.

Erkin akam hayronu lol, nima deyishni bilmay, u yoqqa yuribdi, bu yoqqa yuribdi, haligi kishi ishini yana ham tezlashtiribdi. Shunda ham jahl qilmay, sokin ohangda:

— Amaki, mana, egasi keldi, — debdi.

Amaki xijolat bo‘lish o‘rniga:

— E o‘g‘lim, sizmidingiz, aylanib ketay o‘zim, — degan ekan”.

Ko‘p o‘ylayman, agar men ustozning o‘rnida bo‘lganimda nima qilardim?! Afsuski, bu qadar halim va kengfe’l bo‘lolmas edim. Ustozdan nafaqat ilmda va ijodda, balki hayotidan ham o‘rganadiganimiz ko‘p.

### “Va boshqalar” ichida borman

Kechagidek esimda. 2013-yili Farg‘onada Xudoyberdi To‘xtaboyev, Rojiy Marg‘iloniy va boshqa adabiyot darg‘alari tavallud sanalariga bag‘ishlangan adabiyot bayramiga taraddud ko‘rayotgandik. Kutilayotgan asosiy mehmonimiz Erkin Vohidovning vaqtini hisobga olib, tadbir sanasi belgilandi. Dastur va ro‘yxat shakllantirilib, rahbarlarga yuborildi. Ro‘yxat tahrirlanib, qaytib keldi. Uni ko‘rib tarvuzimiz qo‘ltig‘imizdan tushdi. Yangi ro‘yxatda ustozning ism-sharifi o‘chirilgandi. Muzokaralar naf bermadi. Yo ustoz, yo tadbir tanlovi qo‘yildi, imkonsiz tadbir tanlangandek ko‘rsatildi. Ro‘yxat va dastur yangilandi. Mehmonlarni olib kelish uchun poytaxtga Farg‘onadan ulov yuborilgandi. Yarim kechasi onam yonida edim. Qo‘ng‘iroq bo‘ldi. Xufyalar kechasi soat 2 da ustoz uyiga yashirin yuborilgan ulovning isini yetkazib ulgurgan ekan. Trubkadan eshitilgan tahdidli ovozdan nafaqat onamning, balki mening ham qon bosimim oshdi. Lekin onam ahdidan qaytmadi. Mansabdorlarni emas, ustozni tanladi.

Shoirining mujdasini eshitgan farg‘onaliklar Dang‘araning yo‘li bo‘ylab gullar bilan turnaqator tizilib kutib oldi, mehru muhabbatini poyandoz qildi. O‘shanda ustozning ko‘z yoshini ko‘rdim. Bu iztirob, sog‘inch va diydor ko‘z yoshi edi. Uch kunlik tadbir chinakam adabiyot to‘yiga aylandi. Qayerga bormaylik, gurras-gurras izdihom ustozni kutib olar, yelkasiga to‘n yopardi. Yeta olmaganlar uzoqdan ko‘rib, sevinar, “O‘zbegim”dan boshlab “Inson o‘zing”ni avjiga chiqarishardi. O‘shanda “Farg‘ona tong otguncha” erkinxonlik davom etdi. Men o‘shanday ijod haroratini, xalqning bir shoiriga samimiy muhabbatini boshqa ko‘rmadim.

**XALQ DARDI SHOIRNING DARDIGA AYLANMAGUNCHA UNI EL SUYMAYDI, O‘ZINIKI BILMAYDI. SHOIR YURT G‘AMI, EL QAYG‘USI, ERK HASRATIDA IZTIROB CHEKMAGUNCHA UNI XALQ QABUL QILMAYDI. USTOZ MARD VA JASUR EDI. 1989-YIL FEVRAL OYIDA TBILISINING TINCH NAMOYISHCHILARIGA QARATA HUKUMAT KUCHLARI QUROL BILAN HUJUMGA O‘TGANDA, “IZTIROB” SHE’RINI YOZADI VA PARTBILETINI ULOQTIRADI.**




Shoir Hindistondan yurak jarrohlik amaliyotidan qaytib, Farg‘onaga keldi. O‘shanda ustozning jismi, ichkin ruhi sog‘ayib, kayfiyati chog‘ bo‘lgan edi. Bundan onam juda sevingandi.

O‘sha tadbirga kelmagan mansabdorlar tomonidan onam o‘zboshimchaligi uchun jazolandi. Ro‘yxatlardan o‘chirila boshlandi. Ustozning nozik ko‘ngli barchasini ilg‘agan va qog‘ozga to‘kkan ekan, bunday yozdi:

***Menga ne qayg‘u!***  
***Kimdir meni yoqtirmay qolsa,***  
***O‘chirilsa ismim qatordan.***  
***Ne qayg‘um bor!***  
***Nomlar sanalsa,***  
***“Va boshqalar” ichida borman.***



### Ikkinchi umr

Shundan so‘ng ustoz uzoq yashamadi. Vafotidan so‘ng Prezidentimiz tomonidan shoirga yuksak ehtirom orqali ikkinchi umr berildi. Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi, poytaxtimizdagi “Adiblar xiyoboni”dagi muazzam haykal, an’anaviy “E voh” ijodiy festivali kabi ezgu tashabbuslar shoir ijodini umrboqiylikka muhrlamoqda.

### Dunyoda muqobili yo‘q maktab

Erkin Vohidovning Marg‘ilondagi muazzam haykali ochilishida davlatimiz rahbari **“Maqsadim — o‘quvchilarni adabiyotga qaytarish orqali ma’naviyatga qaytarsak. Qaniydi, shu maktablardan bitta Erkin Vohidov, bitta Abdulla Oripov yetishib chiqsa, men o‘zimni baxtli hisoblayman”,** degan edi.

Bugun sharafli missiya bajarilmoqda, maktabimiz ma’naviyat akademiyasiga, o‘quvchilarimiz esa ilm va ijod yo‘lidagi mitti kashfiyotchilarga aylangan. Izlanishlarim jarayonida bildimki, dunyoda ijod maktabining muqobili yo‘q.

Maktabimizda Erkin Vohidovdek millatparvar, o‘z so‘zini qo‘rqmay ayta oladigan yangi avlod, ziyolilar armiyasi kamolga yetmoqda. Ilm va ijod uyg‘unligida, ilmiy-ijodiy muhitda tarbiyalanmoqda. Nafaqat o‘zim, balki mehmonlar imkoniyat va yoshlarga havas bilan “Eh, sening yoshliging menda bo‘lsaydi!” deb xitob etadi. Shuni ishonch bilan aytamanki, bir avlod takomilida uyg‘onish, **Uchinchi Renessans yana Sharq markazi O‘zbekistonga qaytadi.**

Ustoz Erkin Vohidov nafaqat ijodi, balki odamiyligi bilan xalq va haqqa yetishgan hazrati inson edi. Ulug‘ nom ostidagi dargohda ishlash qutlug‘ sharaf, ularga munosiblik ulkan mas’uliyatdir.

### Xalq vijdoni

Xalq dardi shoirning dardiga aylanmaguncha uni el suymaydi, o‘ziniki bilmaydi. Shoir yurt g‘ami, el qayg‘usi, erk hasratida iztirob chekmaguncha uni xalq qabul qilmaydi.

Ustoz mard va jasur edi. 1989-yil fevral oyida Tbilisining tinch namoyishchilariga qarata hukumat kuchlari qurol bilan hujumga o‘tganda, “Iztirob” she’rini yozadi va partbiletini uloqtiradi.

***Tiflisda xalq uzra tank yuborgan zot,***  
***Sha’nin qilar bo‘lsa qonun ehtiyot.***  
***O‘sha zot kommunist bo‘lsa, men, hayhot,***  
***Firqa daftarimni otganim bo‘lsin.***

Erkin Vohidov ezgu so‘z va amal uyg‘unligi, fikr va ish birligi, xalq va haq tomonida sobit tura oldi, xalqning vijdoniga aylandi. Davlat mustaqilligi, yurt erki, milliy til tirikligi, xalq farovonligi yo‘lida kurashib, elimiz yuragidan joy olgan o‘zbek ziyolisi, o‘zbek fenomeni darajasiga chiqdi.

Erkin Vohidov “Ziyoli nur egasi demakdir. Bu nur ilm nuri, odob nuri, yuksak insoniy axloq nuri, teran madaniyat, oliy tafakkur, mustahkam ichki intizom, sobit e’tiqod, salim ruhiyat nuridir. Bu nur manbai inson qalbida”, deb yozadi va o‘zi unga og‘ishmay amal qiladi. Nur esa — yorug‘lik. Qalbdan qalbga ko‘chadi. Shoir qalbidagi nur o‘qirmanlar qalbini yoritib, xalq vijdonini tozartib boraveradi. Yillar o‘tadi, zamon o‘zgaradi, asrlar qariydi. Faqat evrilishlar aro ezgulikning taxi buzilmaydi, rangi tuslanmaydi, shakli turlanmaydi. To quyosh sochgayki nur, Erkin Vohidovning ezgulikka esh umri davrlar silsilasidan nurga chulg‘anib, yanada jilolanib o‘taveradi.

**Nigora MANNOPOVA,**  
**Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi direktori**

**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 4616.
39932 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 23:05 Topshirildi — 00:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05